

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

“Himoyaga tavsiya etildi”

Filologiya fakulteti dekani

_____ dots. I.Xudoynazarov

“ _____ ” _____ 2014- yil

**5220100 – “O‘zbek filologiyasi” ta‘lim yo‘nalishi IV bosqich
talabasi Asadova Sabohatning**

**““QUTADG‘U BILIG”NING BADIY XUSUSIYATLARINING
O‘RGANILISH TADRIJI” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba _____ Asadova Sabohat

Ilmiy rahbar _____ Gulruxbegim Ravshanova

“ _____ ” _____ 2014- yil

“Himoyaga tavsiya etildi”

O‘zbek adabiyoti kafedrasi

mudiri _____ dots.G.Imomova

“ _____ ” _____ 2014- yil

Qarshi – 2014

MUNDARIJA:

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.....	3
I BOB. Qutadg‘u bilig`` dostonida turkiy poeziyadagi ayrim janrlar tavsifi	
1.1. Masnaviy janri xususida.....	11
1.2. To‘rtliklar tavsifiga doir.....	21
1.3. Qasida janri haqida.....	28
II BOB. «Qutadg‘u bilig”ning vazn xususiyatlari, qofiyasi va badiiy tasvir prinsiplari	
2.1. “Qutadg‘u bilig”da vazn va qofiya masalasi.....	36
2.2. “Qutadg‘u bilig”ning badiiy tasvir prinsiplari.....	48
Umumiy xulosalar.....	52
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	55

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho adabiy merosni yangicha mezonlar asosida xolisona tadqiq qilish uchun har qachongidan ham dolzarb vazifa kun tartibiga qo'yildi. Ma'lumki, jamiyat, xalq, millatning ma'naviy-madaniy taraqqiyoti, barkamol avlodning shakllanishida badiiy adabiyotning ahamiyati nihoyatda ulkan. Prezidentimiz I.A.Karimov: "...oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish va mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash" borasida juda ko'p islohotlar olib borilayotganini alohida ta'kidladi¹. Ushbu fikrlar har bir ijodkor, shuningdek, adabiyot ilmi mutaxassisilariga tasvir va tadqiq yo'llari, vositalarini to'g'ri tanlash va ish yuritishga ko'mak beradi.

"Qutadg'u bilig" turkiy tildagi poetik janrlarning shakllanishi va evolyutsiyasini kuzatish uchun muhim manbadir. Turkiy tildagi she'riy shakllar, ularning o'zaro munosabati, umuman, turkiy tildagi adabiyotning XI asrdagi holati va uning oldingi davrlar, shuningdek, qo'shni xalqlar adabiyoti bilan aloqasi XI asr adabiy etiketiga munosabati kabi masalalarni «Qutadg'u bilig» orqali yoritmoq mumkin. Bu masalalarning birortasi ham chuqur tahlil etilgan emas.

Turkiy tilli adabiyotdagi she'riy shakllarlarning poetikasi va rivojlanish qonuniyatlari ham yetarli darajada o'rganilmagan.

"Qutadg'u bilig" janr nuqtai nazaridan murakkab asar. Uning janr xususiyatlari haqida yo'l-yo'lakay bo'lsa-da, fikrlar bildirilgan. Bu haqda juda qisqa mulohazalar bilan bir qatorda, ayrim tadqiqotchilarning kengroq tarzda fikr yuritganlarini kuzatish mumkin.

"Qutadg'u bilig" haqida so'z yuritilgan asarlarda uning mavzu qamrovi va ifoda tarzi haqida fikrlar bayon qilingan. Masalan, Najib Osimbek: "Qutadg'u bilig" mavzu e'tiborila «Siyosatnoma» ning aynidir. Turk avzoining mashhuri o'lan o'n birli vaznda va tarzi masnaviyda yozilmish o'lan bu asari nafis beshinchi asri hijriyidagi turk jamoatining haqiqiy bir tasvirini, afkori ma'naviya va siyosiyasini

¹ Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – "Xalq so'zi" gaz. 20-yanvar, 2012-yil.

go'stariyur¹, desa, H.Tavfiq, M.Ehson, H.Oliylar o'zlarining «Turk adabiyoti namunalari»da uning masnaviy shaklda yozilganligini qayd qilish bilan cheklanishadi.² Shu xil fikrlarni boshqa ko'p tadqiqotlarda ham ko'rish mumkin.³

Akademik A.N.Kononov: “Qutadg‘u bilig” didaktik asardir. Bu janrning ildizlari uzoq o'tmish davrlarga borib taqaladi. Bu janr qadimgi misrliklar va hindlarga ma'lum edi. So'ngroq esa Uyg'onish davrida, ya'ni, “Qutadg‘u bilig” yaratilganidan qariyb besh asr keyin, bu janr yevropaliklarga ham ma'lum bo'ldi va ular huddi o'sha “Qutadg‘u bilig”dagidek didaktik g'oyalarni ifodalashda o'z hayotlarini aks ettiruvchi “ko'zgular” shaklidan foydalanadilar⁴”, - deb ko'rsatsa, I.V.Stebleva mazkur “doston turkiy tildagi klassik adabiyot tarixida birinchi marta turkiy tilli poeziyaning keyingi taraqqiyotida mustaqillik kasb etgan bir qator arab va fors poeziyasi janrlarini mujassamlantirgan”,– deydi.

Dostonga bir butunlikda qaraganda ana shunday, ammo unda bir necha (qasida, to'rtlik, masnaviy) janrlarning aralash holda qo'llanganini qanday izohlash kerak? Bu hodisaning real asoslari nimadan iborat?

Bu masalaning hal etilishi, umuman, XI asrdagi turkiy adabiyot muammolari nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, janr – tarixiy kategoriya. U so'z san'atining ma'lum taraqqiyot bosqichida yuzaga keladi va doimo o'zgarib, takomillashib, har bir davr talab va ruhiga moslashib boradi⁵. Shuning uchun ularning keyingi davrlardagi namunalari bilan dastlabki shakli o'rtasida ma'lum tafovutlar bo'lishi tabiiydir. Bir asar doirasida turli janrlarning yoki janr belgilarining bo'lishi ham so'z san'ati tarixida yagona hodisa emas. Jumladan, qadimgi rus adabiyotida ham bu hodisa kuzatiladi.

¹ Najib Osimbek. Turk tarixi, Istanbul, 1330, 1 jild, 259-bet.

² H.Tavfiq, M.Ehson, H.Oliy. Turk adabiyoti namunalari, Istanbul, 1926. 24-bet.

³ Sa'diy A. Kursatilgan makola. 179-183 betlar; Fitrat. «Kutadgu bilig»

⁴ Кононов А.Н. Слово о Юсуфе из Баласагуна и его поэме «Кутадгу билиг» - // Советская тюркология. 1790. № 4. С. 11-12. Стеблева И.В. Поэтика «Кутадгу билиг»... С.100.

⁵ Polyakov M. Вопросы поэтики и художественной семантики. М. Сов.писатель. 1978. С. 228-230.; Храпченко Б.М. Художественное творчество, действительность, человек. М. Сов. Писатель. 1978. С.354-358; Adabiyot nazariyasi, II tom. // Adabiy-tarixiy jarayon. UzSSR FA akademigi M.K.Nurmuxamedov tahriri ostida . Toshkent: Fan. 1979. 305-308-betlar.

Janrlararo bunday aloqa va xususiyatlar oʻrta asrlar adabiyotlarida tipologik xarakterga ega.

Janrlarning baʼzilari kelib chiqishi, shakllanishiga koʻra bir ildizga borib taqaladi. Soʻz sanʼatining maʼlum bosqichdagi taraqqiyoti natijasida janrlar oʻrtasidagi ayirmalar yo kuchayib ketadi va yangi janrlar yuzaga kela boshlaydi yoki ayrim janrlar oʻzaro «kelishib olib» yangisini yuzaga keltiradi; bu hodisa yoki jarayon davomida ayrim janrlar oʻz «umrini» tugatishi ham mumkin. Biroq, bularning hammasi jamiyatning, ayni paytda badiiy tafakkur taraqqiyotining maʼlum davrlari bilan ham chambarchas bogʻliq holda yuzaga keladi.

Janrlarning sinkretik holatda boʻlishini oʻrta asrlar arab adabiyotida ham koʻrish mumkin. Bularning hammasi shuni koʻrsatadiki, janrlarning sinkretikligi yoki ularning mustaqil shakllanishi soʻz sanʼati taraqqiyotining maʼlum bosqichlariga bogʻliq va unga muvofiq keladi.

“Qutadgʻu bilig”da turli janrlarning yoki janr belgilarining mujassamlanganini ham, bizningcha, turkiy tildagi adabiyotning XI asrdagi holati bilan izohlash kerak. Turkiy tildagi adabiyotning XI asrdagi taraqqiyot qonuniyatlarining deyarli oʻrganilmaganligi esa masalaning hal qilinishini bir oz qiyinlashtiradi.

XI asr turkiy tilli adabiyotda janrlar differentsiatsiyasi endigina boshlanayotgan edi. Bu jarayonning butun koʻlami «Qutadgʻu bilig”da oʻz ifodasini topgan. Bu yerda turkiy tilli xalqlar yozma adabiyotining anʼanalari bilan folklor anʼalarining, bu yoʻnalishdagi adabiyotlarda mavjud janrlarning oʻzaro bir-birlariga taʼsirini ham nazarda tutish kerak. Buning ustiga fors-tojik va arab adabiyotining taʼsiri ham nazarda tutiladigan boʻlsa, turkiy tildagi adabiyotning shu davrdagi janrlari, xususan, «Qutadgʻu bilig”da mavjud janrlarning sinkretik holatini tasavvur etish, bizningcha, bir muncha yengillashadi. Asardagi bu holatni S.G.Klyashtorniy juda toʻgʻri xarakterlab bergan: ““Qutadgʻu bilig”da bir qancha adabiy anʼanalar chatishib ketgan. Doston bandlarida goh qadimgi turkiy marsiyalarning hayajonli sadolari yangraydi, goh forsiy «pandnoma»larga xos

didaktika eshitiladi, goh sahro qo‘shiqlarining ask-sadosi quloqqa chalinadi, goh sufiylarning mistik simbolikasi seziladi⁶.

Demak, ushbu asar faqatgina badiiy jihatdangina emas, balki pandnoma asar ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Biroq uning bu xususiyati badiiy quvvatini pasaytirmaydi, balki yanada quvvatlantiradi. Unda o‘zbek mumtoz adabiyotidagi ruboiy, qasida kabilar hamda asar badiiyligini ta‘minlovchi qofiya, radif, badiiy vositalar kabilardan keng va o‘rinli foydalanilgan. Ayni paytda, keyingi davrlar uchun ham bu asar mukammal qurilishga ega ko‘plab asarlar uchun dasturu-l-amal vazifasini o‘tagan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Ma‘lumki, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari turkiy xalqlar adabiyoti tarixida muhim o‘rin egallab, jahon adabiyotidagi badiiy kashfiyotlarning eng porloq namunalaridan hisoblanadi. «Qutadg‘u bilig»ning yaratilishi turkiy xalqlar adabiyoti tarixida ilk klassik poeziyaning kamolot davrini tashkil etadi. Mazkur asarning paydo bo‘lishi tasodifiy bir hol bo‘lmay, qadimiy tarixga ega bo‘lgan turkiy xalqlar poeziyasi taraqqiyotining qonuniy hodisasi sifatida o‘zida turkiy poeziyaning barcha muvaffaqiyatlarini aks ettiradi.

O‘tgan asr chet el olimlari orasida «Qutadg‘u bilig» bilan eng ko‘p shug‘ullangan va katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan olim venger sharqshunosi Xerman Vamberi bo‘ldi. Uning e‘lon qilgan asari «Qutadg‘u bilig»ni butun Yevropaga tanitdi va u yerda bu asarning jiddiy o‘rganilishi uchun keng yo‘l ochib berdi.

Asarni atroflicha o‘rganish ishida turkiyalik olimlarning hissalarini nihoyatda salmoqlidir. Ayniqsa, Muhammad Kuprilazoda, Rizo Nur, Faxri Funduk o‘g‘li, Notiq Orkin, Sodiq Oran, R.R.Arat, A.Dilachar va boshqalarning ishlarida «Qutadg‘u bilig» bilan bog‘liq ko‘pgina masalalar haqida fikr yuritilgan.

R.R.Arat «Qutadg‘u bilig»ning Turkiyadagi eng kuchli bilimdonlaridan edi. Olim asarni o‘rganishga doir ko‘plab maqolalar yozdi, Hirot (Vena), Kohira va Namangan nusxalarining faksimilesi, tanqidiy matni va lug‘atini e‘lon qildi.

⁶ Klyashorniy S.G. Эпоха «Кутадгу билиг» // Советская тюркология. 1970. № 4. С. 82.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab «Qutadg'u bilig»ni o'rganish bilan rus turkologlari shug'ullana boshlashdi. 1861 yili N.I.Ilminskiy doston muqaddimasidan parcha va uning tarjimasini berdi.⁷ XIX asrning 90-yillaridan bu asarni o'rganishga V.V.Radlov kirishdi va olim asar bilan deyarli 25 yil shug'ullandi. V.V.Radlovning buyuk xizmati shundaki, u asarning yangi va nisbatan mukammal nashrini amalga oshirdi⁸.

O'zbekistonda bu asarni o'rganish «Qutadg'u bilig»ning uchinchi – Namangan (Toshkent) nusxasining topilishi bilan bog'liqdir. Bu haqda dastlab «Turkiston» gazetasida xabar e'lon qilinadi, so'ng Fitrat, shuningdek, A.Sa'diyning maqolalari bosiladi. Fitratning «O'zbek adabiyoti namunalari»da asarning shu nusxasidan parchalar tegishli izohlar bilan beriladi. Asarni o'rganish va uni targ'ib qilishda A.P.Qayumov, G'.A.Abdurahmonov, N.M.Mallayev, Q.Karimov, Q.Sodiqov kabi olimlarimizning ham tegishli hissalar bor.

«Qutadg'u bilig»ni o'rganishda Q.Karimovning xizmatlarini alohida ta'kidlash kerak. Olim ko'p yillar davomida asar ustida ilmiy tadqiqotlar olib bordi. U ko'plab maqolalar e'lon qildi, «Qutadg'u bilig»da kelishik kategoriyasi mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yozdi. Birinchi marta asarning transkripsiya va hozirgi zamon o'zbek adabiy tiliga tavsifini e'lon qildi, «Qutadg'u bilig»ning sharhli nashrini amalga oshirdi.

Q.Karimov juda to'g'ri ta'kidlaganiday, «Qutadg'u bilig» haqida qanchalik ko'p ilmiy ishlar qilingan bo'lishiga qaramay, hali turli masalalar sohasida ko'pgina anglashilmovchiliklar bor. Asarning ba'zi tomonlari tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolib kelyapti. Shuningdek, amalga oshirilgan ishlarning asosiy qismi umumfilologik yoki tekstologik xarakterda bo'lib, asarning poetik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlanganlari juda sanoqlidir.

⁷ Ilminskiy N.I. Вступительное чтение в курс турецко-татарского языка с приложениями. - Ученые записки Казанского университета за 1961 г. Г.Казань, 1862.

⁸ Radlov V.V. Кутадгу билиг. Факсимиле уйгурской рукописи императорской и королевской придворной библиотеки в Вене. СПб., 1890. Radloff W. Das Kutatku Bilik das Jusuf-Chass-Hadscib aus Balasagun. Theil . St. - Petersburg, 1891, Theil II. 1910.

Asarning filologik jihatdan o'rganilishida Q.Sodiqov ham samarali mehnat qilib kelmoqda. U asarning uyg'ur yozuvidagi nusxasi ustida ayniqsa jiddiy tadqiqotlarni olib bordi. Shuningdek, asarning fonetikasi, leksikasi ustidagi tadqiqotlari ilm ahlining e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Ishning maqsad va vazifalari. "Qutadg'u bilig" haqidagi ilmiy adabiyotning qisqacha obzoridan ko'rinib turganidek, mazkur asarni o'rganish bilan bog'liq yana ko'pgina ishlarning amalga oshirilishi taqozo etiladi. Xususan, asar poetikasi adabiyotshunoslik yo'nalishida maxsus va chuqur tadqiq etilgan emas. Mana shulardan kelib chiqib biz quyidagi masalalarni o'z oldimizga maqsad qilib oldik:

- "Qutadg'u bilig" dagi mavjud janrlarning asosiy xususiyatlarini o'rganish, shu asosda turkiy xalqlar yozma poeziyasidagi ayrim janrlar genezisini tadqiq etish;

- Yuqoridagilar asosida Yusuf Xos hojibning badiiy mahorati va turkiy xalqlar adabiyoti tarixida tutgan o'rnini ko'rsatish.

Mazkur tadqiqot uchun Q.Karimov tomonidan 1971 yilda qilingan matn asosiy manba sifatida tanlab olingan. O'rni bilan "Qutadg'u bilig"ning boshqa, jumladan, chet el nashrlaridan ham foydalanilgan. Misollar asosan transliteratsiya tarzida keltirilgan.

Taqozo qilingan holatlarda ayrim adabiy-badiiy hodisalarning mohiyatini to'laroq ochish maqsadida misollar arab grafikasi (asarning O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 1809 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxa) asosida berildi.

Tadqiqot ob'ekti. Tadqiqot ob'ekti "Qutadg'u bilig" dostoni va uning ustida qilingan tadqiqotlardan iborat.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- "Qutadg'u bilig"dagi ba'zi janrlar alohida ajratib olinib, chuqurroq tahlil qilindi;

- Devonning shakl xususiyatlari o`rganildi;
- Devondagi she`rlarning vazn masalasi haqidagi masalalarga aniqlik kiritildi;
- Qutadg`u bilig`ning qofiya xususiyatlari ko`rsatib o`tildi;
- “Qutadg`u bilig`ning badiiy mukammaligini ta`minlagan vositalar va ularning mutanosibligi aniqlandi;

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. ``Qutadg`u bilig`ni janrlar jihatdan tadqiq etish umuman turkiy adabiyotdagi janrlar tarixini o`rganish uchun katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan bizning bu ishimiz turkiy tildagi bu adabiyotning XI asrdagi janrlar tizimi, ularning shakllanish va taraqqiyot qonuniyatlarini o`rganishga qaratilgan katta ishning muqaddimasigina bo`lishi mumkin.

Ishdan talaba va o`quvchilar Yusuf xos Xojib va boshqa mumtoz adiblar ijodini janriy xususiyatlari hamda badiiy mukammallik prinsiplarini aniqlashda, badiiy-estetik tafakkurlarini o`stirishda qo`llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi uning umumiy tavsifidan iborat kirish qismi, ikki va uch faslni o`z ichiga olgan ikki bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati bilan 11.859 so`zdan iborat bo`lgan 56 betni tashkil qiladi.

I BOB. «Qutadg‘u bilig” DOSTONIDA TURKIY POEZIYADAGI AYRIM JANRLAR TAVSIFI

1.1. Masnaviy janri xususida

«Qutadg‘u bilig» haqida so‘z yuritilgan asarlarda uning mavzu qamrovi va ifoda tarzi haqida fikrlar bayon qilingan. Masalan, Najib Osimbek: «Qutadg‘u bilig» mavzu e‘tiborila «Siyosatnoma»ning aynidir. Turk avzoining mashhuri o‘lan o‘n birli vaznda va tarzi masnaviyda yozilmish o‘lan bu asari nafis beshinchi asri hijriydagi turk jamoatining haqiqiy bir tasvirini, afkori ma‘naviya va siyosiyasini go‘stariyur», desa, H.Tavfiq, M.Ehson, H.Oliylar o‘zlarining «Turk adabiyoti namunalari»da uning masnaviy shaklda yozilganligini qayd qilish bilan cheklanishadi. Shu xil fikrlarni boshqa ko‘p tadqiqotlarda ham ko‘rish mumkin.

Asarda masnaviy bilan bir qatorda qasida janrida yozilgan boblar ham mavjud. Dostonning 71, 72 va 78 boblari (ular 44, 40, 37 baytdan iborat) g‘azal shaklida yozilgan, ya‘ni dastlabki bayt bilan keyingi barcha baytlarning juft misralari qofiyalanib kelgan. Dostonning har bir bobi nihoyasidagi to‘rtliklarni (ular ikki yuz atrofida) garchi ruboiy uchun qabul qilingan hazajda emas, mutaqorib she‘riy vaznda yozilgan bo‘lishiga qaramay, mazmuniga ko‘ra ham, shakliga ko‘ra ham ruboiy janriga nisbat berish mumkin.

Xullas, asarning janr jihatdan murakkabligi deyarli barcha tadqiqotlarda e‘tirof etilgan. «Qutadg‘u bilig» tarkibidagi ayrim o‘rinlar uni boshqa janrlarga ham yaqinlashtiradi. Yusuf Xos Hojibning o‘zi bu haqda asarning nasriy muqaddimasida «Adlqa Kuntug‘di elig at berib padshah o‘rniga tutmish, davlatqa Aytuldi at berib, vazir o‘rniga tutmish, aqlqa o‘gdulmish at berib, vazirning o‘g‘li erinda tutmish turur, qanaatqa o‘zg‘urmish at berib qarindashi teb aymish turur. Taqi anlar ara m u n a z a r a savali-javabi kecharteg so‘zlamish turur», deydi. She‘riy muqaddimada esa asarning «turkcha qo‘shiqlar»dan iborat ekanligiga ishora bor:

Bu turkcha qo‘shuqlar tuzattim senga
o‘qurda unitma, dua qil menga.

Shuningdek, asar matni orasida «she'r» atamasining juda ko'p qo'llanganini ham ko'rish mumkin.

Demak, «Qutadg'u bilig»ning janriga oid kuzatish va qaydlarni ko'zdan kechirganimizda, shu narsa aniqlashadiki, unda janrlar nomi turlicha nomlanadi (qo'shiq, munozara, she'r, doston...) «Qutadg'u bilig» bilan bog'liq, bu hodisaning sababi, bizningcha, uning janr jihatidan, aniqrog'i janrlar tizimiga ko'ra, sinkretik xarakterda ekanligida.

Bu hodisa tipologik jihatdan qadimgi rus adabiyotidagi janrlar taqdiriga o'xshab ketadi. Chunki ularda ham ko'pincha bir asarning o'zi turli janrlarga aloqadorligini ko'rish mumkin. Buning sababini akad. D.S.Lixachev shunday ko'rsatgan: «Qadim rus adabiyotidagi ayrim janrlarning qorishtirilishi va noaniq ajratilishining bosh sababi shundan iboratki, janrni ajratish asosi uchun, boshqa belgilar bilan bir qatorda ifodaning adabiy xususiyatlari emas, balki asar bag'ishlangan predmet, mavzuning o'zigina xizmat qilar edi. haqiqatda esa qadimgi Rusda janrni aniqlash ifodalash predmetini aniqlash bilan qo'shib ketar edi: «videnie», «jitie», «xojenie», «deyaniya».

«Qutadg'u bilig» janriga doir fikrlarga ham shu jihatdan yondashishi kerak. Dostonga bir butunlikda qaraganda ana shunday, ammo unda bir necha (qasida, to'rtlik, masnaviy) janrlarning aralash holda qo'llanganini qanday izohlash kerak? Bu hodisaning real asoslari nimadan iborat?

Bu masalaning hal etilishi, umuman, XI asrdagi turkiy adabiyot muammolari nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.

Janrlarning ba'zilari kelib chiqishi, shakllanishiga ko'ra bir ildizga borib taqaladi. So'z san'atining ma'lum bosqichdagi taraqqiyoti natijasida janrlar o'rtasidagi ayirmalar yo kuchayib ketadi va yangi janrlar yuzaga kela boshlaydi yoki ayrim janrlar o'zaro «kelishib olib» yangisini yuzaga keltiradi; bu hodisa yoki jarayon davomida ayrim janrlar o'z «umrini» tugatishi ham mumkin. Biroq, bularning hammasi jamiyatning, ayni paytda badiiy tafakkur taraqqiyotining ma'lum davrlari bilan ham chambarchas bog'liq holda yuzaga keladi.

Janrlarning sinkretik holatda bo'lishini o'rta asrlar arab adabiyotida ham ko'rish mumkin. Bularning hammasi shuni ko'rsatadiki, janrlarning sinkretikligi yoki ularning mustaqil shakllanishi so'z san'ati taraqqiyotining ma'lum bosqichlariga bog'liq va unga muvofiq keladi.

«Qutadg'u bilig»da turli janrlarning yoki janr belgilarining mujassamlanganini ham, bizningcha, turkiy tildagi adabiyotning XI asrdagi holati bilan izohlash kerak. Turkiy tildagi adabiyotning XI asrdagi taraqqiyot qonuniyatlarining deyarli o'rganilmaganligi esa masalaning hal qilinishini bir oz qiyinlashtiradi.

XI asr turkiy tilli adabiyotda janrlar differentsiatsiyasi endigina boshlanayotgan edi. Bu jarayonning butun ko'lami «Qutadg'u bilig»da o'z ifodasini topgan. Bu erda turkiy tilli xalqlar yozma adabiyotining an'analari bilan folklor an'alarining, bu yo'nalishdagi adabiyotlarda mavjud janrlarning o'zaro bir-birlariga ta'sirini ham nazarda tutish kerak. Buning ustiga fors-tojik va arab adabiyotining ta'siri ham nazarda tutiladigan bo'lsa, turkiy tildagi adabiyotning shu davrdagi janrlari, xususan, «Qutadg'u bilig»da mavjud janrlarning sinkretik holatini tasavvur etish, bizningcha, bir muncha engillashadi. «Qutadg'u bilig»da bir qancha adabiy an'alar chatishib ketgan. Doston bandlarida goh qadimgi turkiy marsiyalarning hayajonli sadolari yangraydi, goh forsiy «pandnoma»larga xos didaktika eshitiladi, goh sahro qo'shiqlarining ask-sadosi quloqqa chalinadi, goh sufiylarning mistik simbolikasi seziladi.

«Qutadg'u bilig»da didaktik ruh nihoyatda kuchlidir. Bu shoirning niyati va o'z asari oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadi.

Asardagi bu xususiyatga ayrim tadqiqotchilar kamchilik sifatida qarashadi. Bu faqat «Qutadg'u bilig»dagina emas, balki didaktik ruhdagi ko'pgina asarlarga qarashda ko'rinadigan umumiy xususiyatdir. Bunday qarashlarga V.B.Kudelin Yunus Emro ijodi misolida yaxshi zarba bergan. Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar «Qutadg'u bilig»da didaktikaning kuchliligini ko'proq fors-tojik adabiyoti bilan bog'lashadiki, bunday qarash bir yoqlamalikdan xoli emas. Chunki «islomgacha

oʻrta Osiyo xalqlari ogʻzaki ijodida epik janr ham, lirik janr ham, didaktik janr ham boʻlgan».

Filologiya fanlari doktori, professor A. Hayitmetov «Devonu lugʻat it-turk» toʻrtliklaridagi didaktikani qayd qilar ekan, jumladan yozadi: «Bu toʻrtliklardan koʻrinishicha, qadim turkiy xalqlar poeziyasida didaktika juda katta oʻrin tutgan. Bu urugʻchilik jamiyati xususiyati bilan, unda otalarning mavqei baland boʻlganligi bilan bogʻlansa kerak. Keyinroq, urugʻchilik emirila boshlashi bilan bunday poeziyaning mavqei ham kamaya borgan. Bu traditsiyadan xabardor ijod ahlari esa bu masalada orqaga ketishdan nolib, shu xil toʻrtliklarni toʻqishgan. XI-XII asrlardan boshlab esa, bu traditsiyalar yanada rivojlanib, endi fors-tojik poeziyasidagi didaktik traditsiyalarga ham asoslana boshlagan. Xullas, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Maxtumduli kabi zabardast shoirlarning ijodidagi didaktika oʻz ildizlari bilan qadim turkiy traditsiyalarga bogʻlanadi va bu janrning ayrim hollarda feodal sharoitda birinchi planda rivojlanishi tasodifiy emas».

Demak, Yusuf Xos Hojib didaktikasi mana shu adabiy etiketning individual koʻrinishidir.

«Asar Sharq kitob tuzilishi usuliga koʻra tartib berilgan boʻlib, dastavval, unvon soʻng qisqa nasriy muqaddima boʻladi, bunda tangriga hamd, yalavoch (paygʻambar)ga naʼt aytiladi, soʻng kitobning qimmat, nomi, xonga tortiq qilinishi, muallifning taqdirlanishi borasida bayon beriladi. Nasriy muqaddimadan soʻng 77 baytdan iborat sheʼriy muqaddima bor. Undan keyin 73 bob nomining mundarijasi beriladi.» Soʻng Yana unvon bilan mavzuga oʻtiladi, 73 faslning dastlabki oʻn biri debocha boʻlib, hamd, naʼt, Qoraxonga madhdan, sababi taʼlif, etti kavokib va oʻn ikki burj, til foydasi, muallif uzri, ezgulik, bilim hamda zakovat manfaati, kitobga nom berilishi, qarillikka oʻkinishdan iborat. oʻn ikkinchi fasldan boshlab bevosita voqealar bayoniga oʻtiladi. Kuntugʻdi ismli Elig podsho boʻlib, u adolatda dong taratgan edi. Eligning shuhrati butun olamga yoyiladi. U ishlarini himmat va saxovat bilan yuritar, mamlakatda farovonlik va osoyishtalik hukm surar edi. Bunga qaramay u tadbirkor va oqil, hozirjavob va ishbilarmon yordamchilarga

muhtojlik sezadi. Xuddi shu paytda Oyto‘ldi ismli donishmand yigit elig xizmatiga kirishni orzulab poytaxtga keladi. U musofirlikda ko‘p aziyat chekadi, qiynaladi, xushmuomila va tadbirkorligi uchun tezda tanish-bilish orttiradi. U Ko‘samish ismli yigit bilan do‘stlashib poytaxtga kelishidan maqsadini bayon etadi. Ko‘samish Eligning Xos hojibi bilan uchrashadi va uni Oyto‘ldi bilan tanishtiradi.

Yigitdagi qobiliyat va zakovatni ko‘rgan hojib uni Kuntug‘di suhbatiga yo‘llaydi. Oyto‘ldining o‘zini tutishi, fe‘l-atvori, so‘z-fikrini ko‘rgan Elig uni yoqtirib qoladi va saroy xizmatiga oladi. Xizmatdagi og‘ishmasligi, sadoqati tufayli Oyto‘ldining martabasi kundan-kunga orta boradi. Nihoyat u vazirlikka tayinlanadi.

Elig bilan O‘gdulmish o‘rtasida qator savol-javoblar, munozaralar bo‘lib o‘tadi. Bu savol-javob va munozaralarda davlat, uni boshqarish, boshqarishning turli shakl va usullari, jamiyat, jamiyat bilan bog‘liq axloqiy-ma‘naviy va boshqa masalalar ko‘tariladi. Kuntug‘di olim va dono kishilardan beqiyos darajada katta naf ko‘rilishi mumkinligiga shaxsan ishonch hosil qilganligi uchun O‘gdulmishning qarindoshi-donishmand O‘zg‘urmishni ham poytaxtga taklif etadi. O‘zg‘urmish zohidlikni afzal bilib tarkidunyo qilgan, odamlar orasidan chiqib ketib xilvat bir go‘shada – g‘or ichida yashayotgan edi. U taklifni qabul qilmaydi. Elig yuborgan xatlar va O‘gdulmishning olib borgan oqilona suhbatlari natijasidagina u poytaxtga keladi.

O‘zg‘urmish elig bilan davlat ishlari, axloq-odob qoidalari haqida suhbat va munozaralar qiladi, Eligga ko‘plab pand va nasihatlar beradi, so‘ng yana o‘z makoniga ketadi va u erda qattiq betob bo‘lib qoladi. Uning huzuriga etib kelgan O‘gdulmish qattiq qayg‘uradi, o‘zg‘urmish vafot etadi. o‘gdulmish bilan Kuntug‘di uning vasiyatlaricha ish tutadilar. «Qutadg‘u bilig»da bayon etilgan voqealarning qisqacha mazmuni shundan iborat. Bu voqealar juda sxematik tarzda ifodalanganidan qo‘yilgan masalalarni yoritishda hal qiluvchi rolni o‘ynamaydi. Keyinchalik dostonchilik an‘anasida bo‘lgani kabi qo‘yilgan masalani yoritish uchun voqealar bayoni, qahramonlar sarguzashti birinchi planga chiqqan emas.

Masnaviy haqidagi nazariy ma'lumotlarda, asosan, uning shakliy-poetik xususiyatlari qayd etilgan. Masnaviy (ar. ikkilik) deganda, asosan, she'riy shaklning qofiyalanish prinsipi (a-a, b-b, v-v...) tushunilgan.

Masnaviy haqida doktor Zahroi Xonlari yozadi: «Fors she'riyatining o'ziga xos shakllaridan biri masnaviy bo'lib, arab tilida ham forslarga taqlidan yaratilgan va uni muzdavaj deydilar. Masnaviy har ikki misrasi bir xil va mustaqil qofiyaga ega bo'lgan she'rdir». Olim masnaviyning qo'llanish doirasiga ham ishora qiladi: «Fors tilidagi jangovar va maishiy-ma'rifiy manzumalar yozishda (Mavlaviyning ma'lum «Masnaviysi», Firdavsiyning «Shohnoma», Nizomiyni «Xamsa»si kabi) masnaviy shaklidan foydalaniladi⁹».

Masnaviyning bu xildagi ta'rifi uning ayrim xususiyatlarini belgilash imkonini beradi:

- Masnaviy alohida, o'ziga xos she'riy shakllardan biri.
- Masnaviydagi bayt misralari o'zaro qofiyadosh bo'ladi.
- Har bir bayt qofiya nuqtai nazaridan mustaqildir.
- U hajm va mavzu jihatidan chegaralangan emas.

Masnaviy haqida fikr yuritgan klassik poetika mutaxassislarining ko'pida mazkur shaklning bu xususiyatlari qayd etilgan¹⁰².

Turkiy tilli xalqlar poeziyasi tarixi ham uning turli namunalarini o'zida jamlagan. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig»idan boshlangan bu shakl Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Durbekning «Yusuf va Zulayho», Navoiyning «Xamsa»larida davom ettirildi va turkiy xalqlar adabiyotining eng asosiy she'riy shakllaridan biri bo'lib qoldi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy:

Lekin ul barchadin dog'i xubi

Bordurur masnaviyning uslubi.

⁹ Shamsuddin Muhammad Kays ar-Roziy. Al mu'jam fi ma'oiri ash'or –ul Ajam. Sah. 308. Kamoldiddin Voiz Koshifiy. Badoye' al-afkor fi sanaye' ul- ash'or. (Новые мысли о поэтическом искусстве). Издание текста, предисловие, примечания и указатели Р. Мусуль-манкулова. М.: Наука, 1977, с4. Muhammad G'iyosiddin bin Jaloliddin bin Sharofiddin, Giyos al-lug'at, Kanpur, 1323, cah, 452, Yana karang: Farhangi zaboni tojiki, M.: 1969, cah. 649.;

¹⁰ O.Nosirov, S.J.Jamolov, M.Ziyoviddininov. O'zbek klassik she'riyati janrlari. Toshkent, 1979, 125-bet.

*Masnaviykim burun dedim oni,
So 'zda keldi vase' maydoni.
Vus'atida yuz o'lsa ma'rakagir
Ko'rguzur san'atin bori bir-bir,- deb yozgan edi.*

Fors-tojik va turkiy adabiyotidagi faktlar masnaviyning dastlabki taraqqiyot bosqichlarida diniy-didaktik xarakterga ega bo'lganligini ko'rsatadi, «Qutadg'u bilig» ham bu xususiyatdan chetda emas.

Janrning muhim bir xususiyatini N.I.Prigarina qayd etadi: «Masnaviyda ba'zi qiziqarli, «badiiy» boshlanma ustunlik qilishi mumkin, bunda birinchi planga fabula, syujet, personajlar harakati va boshqalar chiqadi (qarang: Attorning «Mantiq ut-tayr»i), ba'zan va'z yoki ozod, «tabiiy» kompozitsiya bilan erkin nasihatomuz suhbatlar uslubi yetakchilik qiladi, buning natijasida syujetsiz qurilish hosil bo'ladi⁴ (qarang: Sanoiyning «Haqiqat al-haqoyiq» asari)».

Bu jihatdan «Qutadg'u bilig»ni ham, garchi unda Masnaviy haqidagi nazariy ma'lumotlarda, asosan, uning shakliy-poetik xususiyatlari qayd etilgan. Masnaviy (ar. ikkilik) deganda, asosan, she'riy shaklning qofiyalanish prinsipi (a-a, b-b, v-v...) tushunilgan.

Fors-tojik va turkiy adabiyotidagi faktlar masnaviyning dastlabki taraqqiyot bosqichlarida diniy-didaktik xarakterga ega bo'lganligini ko'rsatadi. «Qutadg'u bilig» ham bu xususiyatdan chetda emas.

«Qutadg'u bilig» muqaddimasidagi boblar kompozitsiyasiga diqqat qilsak, uning XI asr adabiy etiketiga muvofiq yaratilganini tasdiqlaydi.

«Qutadg'u bilig» masnaviylarining o'ziga xosligini belgilash uchun uning bayt qurilishiga e'tibor qilish muhimdir, chunki bayt arab-fors poetikasiga muvofii shakliy jihatdan ham, mazmuniga ko'ra ham tugallangan she'riy nutq birligi hisoblanadi¹². Shunga ko'ra shoirlar ham, klassik poetika mutaxassislari ham bayt qurilishiga alohida e'tibor bilan ijarashgan, hatto bayt iurilishi bilan aloiador poetik

¹² M-N, Osmanov. Синтаксическая структура бейта /на примере «Дивана» Хафиза/. - Проблемы восточного стихосложения. М.: «Наука». 1973. стр. 60-67.

san'atlar ham mavjudki, ular baytning ritmik-sintaktik qurilishini ham boshlarib turadi. Bu yerda «tarse''' haqida to'xtash o'rinlidir.

Bu san'at mohiyati bayt misralarining o'zaro ritmik-semantik munosabati bilan izohlanadi va ular turlicha ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin.

1. Birinchi misra mazmun ifodasiga ko'ra mustaqil bo'ladi. Keyingi misra qo'shilganda ham ular o'rtasida mantiqiy tobelik sezilmaydi, ularning har biri o'zicha mustaqil mazmun ifodalay oladi:

Necha qilg'u ishlar bo'r ichsa qalur,

Necha qilmag'u ish esursa kelur.

Ya'ni: *Qanchadan-qancha iilinishi lozim ishlar may ichgach, iolib ketadi. Qanchadan-qancha nojo'ya ishlar kayf qilgach sodir bo'ladi.*

Masnaviy baytlarining asosiy qismi shu usulda yaratilgan, zero bayt misralarining bunday tuzilishi juda qadrlangan va u *tasrei komil*, ya'ni yetuk tasre deb nomlangan.

2. Birinchi misra mazmunan mustaqil bo'ladi, biroq unga keyingi misra qo'shilishi bilan uning tobeligi seziladi, bunda keyingi misra mazmunan mustaqil bo'la olmaydi:

Yag'i qachsa tab qil ezarma yiraq,

Yali yandru yansa, qachumasazaq.

Ya'ni: *Agar yov qochsa, bas qil, izidan uzoq borma, chunki orqaga qaytsang, oyoq qocha olmaydi ya'ni oyoq charchaydi.*

3. Birinchi misra mazmunan mustaqil bo'lmashligi mumkin:

Baqa ko'rdum emdi bu ishta menga

Salahi kurunmaz, ey ersig to'nga.

Ya'ni: *Boqib ko'rdim, endi bu ishda mening uchun (hech qanday) salohiyat ko'rinmayotir, ey mard bahodir.*

4. Birinchi misra mazmunan muallaq holda bo'ladi, ya'ni u nisbiy tugal fikrni ifodalashiga qaramay keyingi misraning bosh qismi unga bog'liq bo'ladi:

Tuman tu ag'ilar, ajun tangsuqi,

Ularda boʻlur, ey biligliq aqi.

Yaʼni: Turli-tuman qimmatbaho narsalar, dunyoning tansiq (narsalari) ularda boʻladi, ey bilimli, saxiy.

Baytning bunday strukturasi fors-tojik adabiyotida nomoʻtabar hisoblangan, shunga koʻra uni *taʼliq* (bogʻliqlik, aloqadorlik) deyiladi.

5. Misraning mazmuniy mustaqilligi shu daraja boʻladiki, ularning oʻrni almashtirilgan taqdirda ham maʼnoga hech xalal yetmaydi;

Ne ezgu ish erdi oʻlum boʻlmasa.

Ne koʻrklugʻ ish erdi kishi oʻlmasa.

Mazmuni: Oʻlim boʻlmasa qanday ezgu ish boʻlar edi, kishi oʻlmasa ianday chiroyli ish boʻlar edi.

Koʻrinadiki, masnaviy baytlari misralarning oʻzaro qanday struktura tashkil qilishlaridan qatʼiy nazar, ritmik-sintaktik va mazmun xususiyatlariga koʻra umumiy yaxlitlikni, nisbiy tugallanganlikni ifodalaydi. Shunga qaramay, ayrim holatlarda baytning ritmik-sintaktik jihatdan yoki mazmunan tugallanmay, uning davomi keyingi baytlarga oʻtgan holatlar ham, garchi ular juda oz boʻlsa-da, uchraydi. Bizningcha, bunga, koʻproi poetik mazmunning oʻta hayajon, shoirona toʻliinlanish natijasida tugʻilishi sabab boʻladi.

Yagʻiz yer baqir boʻlmagʻincha qizil,

Ya oʻt, ya chechak unmagincha yashil,

Tirilsinu turkan quti ming qutun,

Tirilsinu koʻrmaz qaraqi oʻtun.

Boʻz yer misdayin qizil boʻlmaguncha

Yoki yashil oʻt yo gul(lar) unmaguncha

Turklar quti ming baxt(lar) bilan yashasin.

Koʻra olmaydiganlarning koʻzi oʻt bilan teshilsin.

Umuman «Qutadgʻu biligʻ»XI asrgacha yaratilgan turkiy tildagi masnaviy taraqqiyotining eng yuqori nuqtaga olib chiqdi. U oʻzida syujetlilikni mujassamlantirgan eng muhim sheʼriy shakl boʻlib, XI asrda didaktik yoʻnalishda

rivojlandi. Uning shakllanishi, rivojlanishi, amal qilish ionuniyatlari ma'lum darajada fors-tojik adabiyoti bilan bog'liq bo'lib¹³, Yusuf Xos Hojib bir tomondan shu adabiyotga, ikkinchi tomondan esa o'zigacha mavjud bo'lgan milliy an'analarga tayangani shubhasizdir. XI asrgacha bo'lgan adabiy an'analarga asosida mazkur she'riy shaklni takomillashtirgan Yusuf Xos Hojib tajribasi keyingi asr shoirlari tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildi.

Asar masnaviylari o'zidagi qasida va to'rtliklardan farq qilgan holda epik xarakterga ega. Biroq, asar masnaviylarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, u o'z ichiga ko'plab to'rtliklarni, shuningdek, iasidallarni ham iambik oladi. Ayrim lirik parchalar, xususan, tabiat ko'rinishlari tasvirining ustalik bilan kiritilganligi ham e'tiborlidir. Masnaviy orasiga boshqa janr namunalarining kiritilishi Yusuf Xos Hojib kashfiyotidir. Bu kashfiyot XII asrda Ahmad Yugnaqiy, keyinroq, Fuzuliy va boshqa shoirlar ijodida qayta ko'rinadi¹⁴.

¹³ A.Mirzayev. Рудаки. Жизнь и творчество. М.: Наука, 1968.

¹⁴ S.X.Aliyev. Формы классической азербайджанской поэзии. АҚД. Баку, 1966. стр.25

1.2. To'rtliklar tavsifiga doir

«Qutadg'u bilig»da ko'plab to'rtliklar ham mavjud. Ularning sonini olimlar turlicha ko'rsatishadi. Masalan. Fitrat ularni 182 tadan ortiq¹⁵, I.V.Stebeleva 200 tadan ortiq deydi.¹⁶ X.Usmonov esa ellikdan ortiq degan ma'lumotni keltirib o'tadi.¹⁷ A.N.Samoylovich bo'lsa ularni Radlov nashridan 202 ta sanaganligini yozadi¹⁸. J.Karimov bir o'rinda ularni 180 ga yaqin deydi¹⁹, shuningdek, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot tomonidan chiqarilgan kitobda 176 to'rtlik bor keltiriladi²⁰. Olimning «FAN» nashriyoti tomonidan chiqarilgan kitobida esa Yusuf Xos Xojibning 205 ta to'rtligi bor. Agar bu nashrdan tushib qolgan 109 baytli matndagi 5 to'rtlikni ham bunga qo'shsak, ularning umumiy soni 210 ta bo'ladi.

Shu o'rinda «Qutadg'u bilig» to'rtliklarining muallifi masalasiga ham to'xtab o'tishga to'g'ri keladiki, tadqiqotchilar orasida bu masalada birlik yo'q. Mazkur masala sohasida olimlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

Birinchisi, to'rtliklarni boshqa mualliflarga mansub deguvchilardir. Bu fikrni dastlab, Fitrat aytgan edi. X.Usmonovda ham shu fikrga moyillik kuchli.

Ikkinchi guruhdagilar esa to'rtliklarning asosiy qismi shoirning o'ziga tegishli ekanligini uqtiradi.

Bizningcha, ular tamomila «Qutadg'u bilig»ning muallifiga tegishlidir, chunki to'rtliklar o'zlarining vazni, mavzu va uslub xususiyatlari, badiiy tasvir prinsiplariga ko'ra asarning boshqa qismlaridan mutlaqo farq qilmaydi.

To'rtliklar Sharqda, xususan, o'rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan keng tarqalgan. To'rtliklarning tarixiy taraqqiyoti dunyoga mashhur bo'lgan ruboiy janrini yuzaga keltirgan. «Qutadg'u bilig»to'rtliklarini ruboiy deyish mumkinmi?

¹⁵ Fitrat «Kutadgu bilig» - Maotif va o'qituvchi, 1925, 2-son, 72-bet.

¹⁶ I.V.Stebeleva. Поэтика «Кутадгу билиг». –Советская тюркология, 1970, № 4, с. 95.

¹⁷ X.Gosman. Шигыр тозелеше, Казань, Татарстан китап нашриёти, 1975, 111-бет

¹⁸ A.N. Samoylovich. Изпоправок к изданию и переводу «Кутадга билиг».- Доклады Российской Академии Наук, 1924, Октябрь-декабрь Л.1924.с.151

¹⁹ Yusuf Xos Hojib. Kutadgu bilig. (Saodatga y'lovchi bilim). Hozirga 'zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi Ё.Karimov. Toshkent, Ё.Ёulom nomidagi badiy adabiyoti nashriyoti, 1971. 12-bet. Yana 3arang. Ilk badiy doston.- T.: FAN, 1976. 19-bet.

²⁰ o'sha kitob, 24-141- betlar.

Umuman, asar to'rtliklarining ruboiy janri va hali to'rtliklari bilan ianday munosabati bor?

Ma'lumki, «ruboiy deb Ajam shoirlari to'rt misrasi qofiyalangan, uchinchi misraning qofiyalanishi shart bo'lmagan hamda hazaj bahrining axrab va axram vaznida yozilgan she'rni aytadilar. «Kutadg'u bilig'' to'rtliklari yuqoridagi talablarga asosan javob bera oladi. Ularning mavzu kengligi ruboiy mundarijasiga tamomila mos. Biroq bu talablardan chekinadigan tomon ham borki, bu vazn masalasidir. Shuning o'zi uni ruboiylardan farqlaydi, chunki Alisher Navoiy ta'kidlagandek, ruboiy vaznikim, ani dubaytiy va tarona ham derlar, hazaj bahrining ahram va axrabiddin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xush oyanda va bag'oyat raboyanda...»²¹

Filologiya fanlari doktori, professor A. Hayitmetov «Devonu lug'ati-t-turk'' to'rtliklaridagi didaktikani qayd qilar ekan, jumladan yozadi: «Bu to'rtliklardan ko'rinishicha, qadim turkiy xalqlar poeziyasida didaktika juda katta o'rin tutgan. Bu urug'chilik jamiyati xususiyati bilan, unda otalarning mavqei baland bo'lganligi bilan bog'lansa kerak. Keyinroq, urug'chilik yemirila boshlashi bilan bunday poeziyaning mavqei ham kamaya borgan. Bu traditsiyadan xabardor ijod ahllari esa bu masalada orqaga ketishdan nolib, shu xil to'rtliklarni to'qishgan. XI-XII asrlardan boshlab esa, bu traditsiyalar yanada rivojlanib, endi fors-tojik poeziyasidagi didaktik traditsiyalarga ham asoslana boshlagan. Xullas, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Maxtumduli kabi zabardast shoirlarning ijodidagi didaktika o'z ildizlari bilan qadim turkiy traditsiyalarga bog'lanadi va bu janrning ayrim hollarda feodal sharoitda birinchi planda rivojlanishi tasodifiy emas''.²²

Demak, Yusuf Xos Hojib didaktikasi mana shu adabiy etiketning individual ko'rinishidir.

Xullas, «Qutadg'u bilig''ni janrlar jihatdan tadqiq etish umuman turkiy adabiyotdagi janrlar tarixini o'rganish uchun katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan bizning bu ishimiz turkiy tildagi bu adabiyotning XI asrdagi janrlar tizimi, ularning

²¹ Alisher Navoiy .Mezon ul-avzon.Asarlar, 14-tom, Toshkent, 1967

²² O'sha asar. 51-bet.

shakllanish va taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan katta ishning muqaddimasigina bo'lishi mumkin.

Shunga ko'ra "Qutadg'u bilig" to'rtliklari ruboiy darajasiga yetmagan, biroq ularning janr xususiyatlarini o'rganish, bu to'rtliklarning turk tilidagi ruboiylarning shakllanishida muhim bosqich bo'lganligini ta'kidlab turadi.

Yusuf to'rtliklarini kompozitsion-semantik xususiyatlariga ko'ra bir necha turga ajratish mumkin. Ular quyidagilardir;

Uqushlug', vafalig', kishi tuzuni

Yulug'lar kishika qamug' o'zini.

Arig'siz, jafalig', qilinch o'tun

Qali aydi ersar qiyar so'zini.

Ya'ni:

Zakovatli, vafoli, kishi(lar)ning yaxshisi,

Odamga butun jonini fido iiladi.

Nopok, jafokor, iilmishlari tuban(kishi).

Agar va'da bergan bo'lsa ham, so'zidan qaytadi.

Ko'rinib turibdiki, to'rtlik kompozitsion jihatdan ikki qismga bo'lingan. Birinchi qismida ezgulik yo'lida jon fido qiluvchilar ulug'lanadi. Ikkinchi qismida tamomila qarama-qarshi qutbdagi nopok, jafokor shuxslar qoralanadi. Agar bu kompozitsion qismlarni alohida-alohida tasavvur etadigan bo'lsak, ularda oddiy bir xususiyat, quruq xabargina qoladi xolos, ularning yaxlitligi esa poetik fikrning ham yaxlitligini ta'minlagan. Bundan tashqari qismlarning mana shu tartibi kitobxonni misralarni qiyoslab ko'rishga va bu ikki qism o'rtasidagi ma'naviy ziddiyatni seza olishga imkon beradi. Bu esa to'rtlikning emotsional tomoni, ya'ni keltirilayotgan fikrning ta'sirini kuchaytiruvchi muhim omildir.

Asardagi to'rtliklarning ko'pi xuddi shu yo'l bilan yuzaga kelgan. Bu usulning afzallik tomoni fikrning ixcham, lo'nda va ta'sirchan ifodalanishini ta'minlaydi. Lo'ndalik va ixchamlilik esa lirik janrlarning, jumladan, to'rtliklarning muhim xususiyatlaridir. Lirik janrlarning yuqoridagi xususiyatlarini T.Sulman

shunday ta'riflaydi: "Fikr lo'ndaligi lirik she'riyatning o'z janr xususiyati taqozo qiladigan, hech bir tashqi emas, ichki ehtiyoji talabidir"²³.

Bu yerda ham to'rtlik aslida o'zaro teng qismlarga – baytlarga bo'linadi, biroq bu bo'linish mazmuniy ziddiyat natijasi emas. Birinchi misrada o'rta qo'yilgan fikr ikkinchi misrada o'zining poetik rivojini topgan. Ikkinchi misra oldingi misradagi fikrni davom ettiradi, ayni paytda uni mustahkamlaydi. Shu bilan ma'lum poetik fikr o'z nihoyasiga yetadi.

Keyingi baytda ham kompozitsion jihatdan oldingi baytdagi prinsiplari aynan qo'llanadi, biroq fikr so'nggi misrada oldingiga nisbatan yuqoriroq pog'onaga olib chiqiladi, baytlararo ma'naviy parallellikni yuzaga keltiradi (Ularni sintaktik parallelizm ham boshqarib turadi). Ham sintaktik, ham ma'naviy parallellikning bu birikishidan poetik fikr takrorlanmas bir jarangga erishadiki, to'rtlikning butun ta'sir kuchi mana shunga bog'liq.

To'rtlik kompozitsiyasi misralarning o'zaro munosabatlari natijasida shakllanadi. Quyida yana bir kompozitsion shaklni ko'rish mumkin:

Biligsizga davlat yarashsa kelib,
Biliglikka artuq yarashur tegib.
Biligsiz bila tursa davlat qali
Biliglik bila turg'a teng tush ko'rib.

Ya'ni: *Agar nodonga kelgan davlat unga yarashsa donoga kelgan davlat unga nihoyatda yarashadi. Agar (davlat) nodonga kelib qaror topsa, U (davlat) dono uchun mos va muvofiq bo'lib qaror topadi.*

Mazkur to'rtlik ham avvalgi to'rtliklar kabi kompozitsion jihatdan ikki qismga ajraladi. Hatto misralarning o'zaro ma'naviy ziddiyatga asoslanishi uni dastlabki to'rtlik bilan yaqinlashtiradi. Biroq bu yerdagi ma'naviy ziddiyat misralararodir. Oldin bilimsiz va bilimlarning davlatga ega bo'lganidagi munosabatlari to'g'risida gap boradi. Ular o'zaro ziddiyatda olinarkan,

²³ Silman T. Заметки о лирике. М.: Сов.Писатель, 1977.с.6.

keyingisining oldingisidan go‘zalligi (artuq yarashur) uqtiriladi. Bu fikr keyingi baytda yanada rivojlantiriladi.

Davlat nodon bilan faqat birgalikni tashkil qiladi xolos, ammo u dono bilan haqiqiy go‘zallik kasb etadi (teng tush ko‘rib turadi). Bu yerda toq misralar ma’lum fikrni o‘rtaga qo‘yadi. Juft misralar esa ularning ziddi uchun keltiriladi. Mana shu usul orqali shoir o‘z fikrini ochiqroq bayon eta oladi, ya’ni bilimsizlikni qoralab, donolik, bilimdonlikni ulug‘laydi.

Yusuf xos Xojib bu to‘rtliklarda fikrni zanjirli ravishda rivoj-lantirgan. Birinchi misradagi fikr keyingisida to‘ldiriladi. Uchinchi misradagi fikr esa, yanada yuqoriroq va puxtarroq fikrni aytishni hozirlik ko‘radi, ya’ni u keyingi bosqichga sakrash uchun o‘ziga xos trampolin vazifasini bajaradi. Bu xususiyatlar asar to‘rtliklarini ba’zi bir tip ruboiylarga yaqinlashtiradi, chunki «ruboiydagi har bir misra o‘zicha alohida ma’noli bo‘lib, ular umumg‘oya nuqtai nazaridan poetik uyg‘unlikka ega. Kompozitsion jihatdan esa misralar nisbatan mustaqilikka ega bo‘ladi».

Ayni paytda I.S.Braginskiyning ruboiyga bergan ta’rifi «Qutadg‘u bilig» to‘rtliklari kompozitsiyasi uchun ham juda muvofiq keldi: «Ruboiy so‘zning tom ma’nosi bilan lirik miniatyura bo‘lib, dastlabki ikki misrada «tugun», uchinchi, ko‘pincha, qofiyalanmagan misrada «kulminatsiya», (bir ishora, fikrlashdagi to‘xtash) va ruboiy ma’nosini ochuvchi, uning «mag‘zini» tashkil etuvchi oxirgi to‘rtinchi misrada «yechim» ifodalangan bo‘ladi»²⁴. Yuqoridagi to‘rtliklar, garchi ular vazn nuqtai nazaridan ruboiydan farqlansa-da, shu janrning turkiy adabiyotda shakllanishida o‘ziga xos bir bosqich (yuqorida ko‘rsatganimizday faqat vazn yo‘q) bo‘lib xizmat qilganligini ta’kidlab turadi.

«Qutadg‘u bilig» to‘rtliklarida xalq to‘rtliklarining kuchli ta’siri ko‘rinadi. Buni, xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘at it-turk» asarida keltirilgan to‘rtliklar bilan muqoyasa qilish natijasida ko‘rish mumkin. Mahmud Qoshg‘ariydagi to‘rtliklarning ko‘pi xalq og‘zaki ijodining namunasi bo‘lib, asosan

²⁴ I.S.Braginskiy. Очерки из истории таджикской литературы. – Сталинабад, 1956. С. 181.

barmoq vaznidadir. (bu haqda quyiroqda yana to‘xtab o‘tiladi), qofiyalanish prinsiplariga ko‘ra murabba, ko‘pincha yozma adabiyotdagi ruboiy shaklini eslatuvchi a-a-b-a, a-a-a-a shakliga ega, shuningdek boshqa ko‘rinishlar ham mavjud. Agar bu shakllarning juda ustunligini e‘tiborga olsak ``Qutadg‘u bilig’’ to‘rtliklarining zamini turkiy xalqlar og‘zaki ijodida ekanligiga shubha qolmaydi. Faqat shakliy xususiyatlarga emas, to‘rtliklarning g‘oyaviy yo‘nalishi, mazmun xususiyatlari, badiiyatida ham shunday yaqinlik kuzatiladi. Chunki to‘rtlik shakli turkiy xalqlar poeziyasidagi eng qadimiy shakillaridandir. Bu haqda YE.E.Bertels shunday yozadi: «Qasida va g‘azallaridagi yagona qofiyalik albatta, arablardan, biroq juft qofiya arablarga mutlaqo ma‘lum emas edi. Ularga ruboiy ham noma‘lum bo‘lgan. Ammo ruboiy juda qadim zamonlardan O‘rta va Markaziy Osiyodagi turli turkiy xalqlar folklorida eng yoqimli shakllardan biri bo‘lgan. Shuningdek, arab termini bilan ataladigan murabba, ya’ni har bir misrasi a-a-a-b; v-v-v--b, g-g-g--b v.b. ko‘rinishida qofiyalanuvchi band shakli juda ko‘p turkiy xalqlar folklorida uchraydigan to‘rtliklardan boshqa narsa emasligini tan olmaslik mumkin emas``²⁵.

Bu fikr, ya’ni to‘rtliklarning turkiy tilli xalqlar adabiyotida qadimiy an‘anaga egaligi V.M.Jirmunskiy va H.Zarifovlar tomonidan ham qayd etilgan edi: «Xalq dostonlarida, she‘rlar ayrim istisnalar bilan kompozitsion jixatdan band shaklga ega. Ruboiy (aava qofiyalari bilan) tipidagi to‘rtliklar ustun bo‘lib, uchinchi misra (v) qofiyalanmaydi yoxud och qofiyalangan bo‘ladi. Bu xil to‘rtliklar klassik fors poeziyasining keyinchalik ko‘rsatgan ta’siridan qat’iy nazar, turkiy tilli xalqlarda juda qadim mahalliy traditsiyaga ega. Mahmud Qoshg‘ariy «Devon`` idagi qahramonlik eposidan keltirilgan parchalar X-XI asrlardayoq turkiy xalqlar epik ijodida to‘rtliklar tamomila odatdagi holga aylanib qolganidan guvohlik beradi``²⁶.

Demak, ``Qutadg‘u bilig’’ dagi to‘rtliklar o‘z tarixiy ildizlari bilan qadimgi turkiy xalqlar adabiyotiga, xususan o‘zida xalq og‘zaki ijodining, shuningdek,

²⁵ YE.E.Bertels. История персидско-таджикской литературы. М.,1960. С.88.

²⁶ V.M.Jirmunskiy. X.Zarifov. Узбекский народный героический эпос. ОГИЗ, М.,1947. С.440-441.

yozma adabiyotning ham eng yaxshi namunalarini jamlagan «Devoni lugʻat it-turk» ka borib taqaladi. «Devoni lugʻot it-turk» dagi sheʼriy parchalar koʻpgina olimlar diqqatini oʻziga tortgan edi. Xususan, ularning vazni chuqur tekshirilgan. Koʻpchilik olimlarning eʼtiroficha, ular asosan barmoq vaznida yozilgan. Tadqiqodchi T.Ganjiy ular orasida aruzda ham yozilgan ayrim parchalar mavjudligini koʻrsatsa, olima I.V.Stableva ularning deyarli barchasini aruz vazniga ham uygʻun deydi²⁷. N.Mallayev esa ularda aruz va barmoq namunalari mavjudligi holda keyingisining ustun mavqeda ekanligini taʼkidlaydi: “...ayrim sheʼrlarning yozma adabiyotga mansubligi va aruzda bitilganini (aruz turkiy poeziyasiga singishib ketayotgan edi) eʼtiborga olish bilan birga, nazarimizda, koʻpchilik sheʼrlar ogʻzaki poeziyaga mansub boʻlib, turkiy xalqlar sheʼriyatining tugʻma vazni-barmoqda ekanini taʼkidlash lozim”.

“Qutadgʻu bilig” toʻrtliklarining bosh xususiyati, yuqorida aytganimizday, ularning didaktik xarakteridir. Biroq, Yusuf didaktikasi pand-nasihat, oʻgitlarning yalangʻoch ifodasi emas. Uning toʻrtliklarida bashariyatning butun tarixi davomida intilgan ijobiy xususiyatlarni koʻklarga koʻtarish, insoniylikni, insoniy fazilatlarni targʻib qilishni koʻrish mumkin.

²⁷ «Devonu lugat it-turk» vazni haqidagi obzorni qarang: I.V.Stableva. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке, М., 1971.С.8-9,23-56.

1.3. Qasida janri haqida

Qasida arabcha «qasd» soʻzidan olingan boʻlib, maqsad, niyat, biror joy, narsa yo maqsadga qasd qilish degan maʼnoni anglatadi. Adabiy termin sifatida esa lirik turga mansub sheʼriy janrlardan birini bildiradi. Qasida hajman chegaralanmagan boʻlib, 15-20 baytdan 100 va undan ham ortiqroq baytga ega boʻlishi mumkin. U tematik jihatdan ham gʻoyat keng qamrovga ega²⁸. “Qoʻshiq” termini Yusuf Xos Hojibning asarida ham uchraydi:

*Bu turkcha qoʻshiqlar tuzattim senga,
Oʻqurda unutma, dua qil menga.
Senga bu turkcha qoʻshiqlarni tartib berdim,
Oʻqirda unutma, mening haqimga duo qil.*

Shoir «qoʻshiqlar» deganda umuman sheʼriyatni, deyarli hamma sheʼriy shakllarni nazarda tutganga oʻxshaydi. Asarda «sheʼr», «bayt» terminlari ham bor, biroq «qasida» termini qoʻllangan emas. Shunga qaramay, asarda uchta qasida mavjud boʻlib, ularning barchasida ham qasidaning asosiy va oxirgi qismlarida anʼanaga rioya qilinadi. Boshqa kompozitsion qismlarda anʼanaviylikdan chekiniladi.

Shoir qasidalarining birortasida ham tashbib (nasib) yoʻq, yaʼni ular *qasida* мужаррадий²⁹. Asar qasidalaridagi kompozitsion oʻziga xoslik va uning obrazlar sistemasiga diqqat qilish shuni koʻrsatadiki, shoir qasidalariga fors-tojik va qisman arab adabiyotining taʼsiri kuchli boʻlgan, biroq, u turkiy tilli xalqlar folkloridan hamda badiiyati anʼanalaridan puxta oziqlangandir.

Yusuf qasidalarining oʻziga xos xususiyati shundaki, ularning voqeʼlikni tasvirlashida maʼlum reallik bor, vaholanki, keyinroq bu janrda mavhum qarashlar va poetik obrazlarda allegorik maʼnolar berish asosiy oʻrin tutgan edi. Shu oʻrinda Yusuf Xos Hojib qasidalarining mazkur janrning turkiy tilli adabiyotda rivojlanishida alohida bosqich boʻlganligini taʼkidlash oʻrinlidir. Yusuf Xos Hojib

²⁸ Xanna al-Faxuri . История арабской литературы .т.1.М.,1969.

²⁹ Bu xil qasidalar XI-XII asrlar fors-tojik adabiyotida ham keng qoʻllangan edi. Qarang: A. Abdulloyev. Qasoidi Hofiz,- Jashnoma Hofiz. Dushanbe, «Donish»,. 1971 .sah. 65.

qasidaları turkiy qasidaning oʻziga xos xususiyatlarini koʻrsatuvchi dastlabki bosqich va namuna sifatida beqiyos ahamiyatga molik. Shoir qasidaları shu janrga qoʻyiladigan traditsion talablardan bir oz chekinadi. Bu yerda dastlab ularning avtobiografik xarakterini qayd qilish lozim. Bu jihatdan uning «Yigitlikka achinib qariligini aytadi» sarlavhali qasidasi xarakterlidir. U quyidagi matlaʼ bilan boshlanadi:

Yurilli bulittek yigitlikni idtim,
Tubi yel kecharteg tiriglik tugattim.
Kezuvchi bulutdek yigitlikni ketkazdim,
Oʻtkinchi boʻron, yeldek tiriklikni tugatdim.

Maʼlumki, anʼanaga koʻra qasidada ijodkor ruhiy holatini ifodalash, taqdirdan, hayotdan shikoyat qilish gʻoyalari asosiy oʻrin tutadi. Bu narsa shoir qasidalarida ham birinchi planda turadi. U yigitlikning oʻtib ketganiga qattiq qaygʻuradi, qarilikdan shikoyat qiladi.

Qasida oʻzining loyaviy yrnalishiga koʻra Rudakiyning mashhur «Qarilik haqidagi qasida»sini esga soladi. Bu fikr oʻz-oʻzidan shunday savolni keltirib chiqaradi: Yusuf Xos Hojib Rudakiy asarlari bilan tanish edimi?

Shoirning, ayniqsa, «Shohnoma» bilan puxta tanishligi ikki oʻrinda aniqroq koʻrinadi: prozaik muqaddimada «Eranliklar «Shahnomai turkiy» tedilar» degan jumlaning oʻqiymiz. Bu fikr sheʼriy muqaddimada ham qaytariladi:

Eranliklar Shahnoma ter mungar,
Turanli illar «Qutadgʻu bilig» teʼb uqar.
Eronliklar buni «Shohnoma» deydilar,
Turanliklar «Qutadgʻu bilig» deb anglaydilar.

Maʼlumki, Rudakiyning qarilik haqidagi mashhur qasidasi mavjud. Ana shu mavzuda Yusuf Xos Hojib ham nihoyatda goʻzal bir qasida yaratgan. Har ikki shoir qasidalarining matla va maqtaʼlarini keltiramiz.

Rudakiy:

Tishim bari toʻkilib ketdi, duri gʻalton edi,

Ularni tish dema, balki charoli tobon edi.....

Zamona aynadi, men ham tamoman o`zgardim,

Asomni qo`lga ber endi, u boshqa davron edi.

Yusuf Xos Hojib:

Yurig`li bulittek yigitlikni idtim,

Tubi yel kecharteg tiriglik tugattim.....

Sen – risen yazuq yarliqag`li idim bir,

Suyurqa meni sen, yazuqim unuttim.

Kezuvchi bulutdek yigitlikni ketkazdim,

O`tkinchi bo`ron, yeldek tiriklikni tugatdim.....

Gunohlarni kechiruvchi yagona egam faqat sendirsan,

Sen menga marhamat qil, gunohlarimni unutdim.

Ikki adib qasidalarida bir qator umumiylikni ko`rish mumkin:

1. Rudakiyning ham, Yusufning ham qarilik haqidagi qasidaları shakliy jihatdan nasibga ega emas. Ular tog`ridan-to`g`ri asosiy qismdan boshlanadi.

2. Tar ikki qasida ham mavzu jihatdan qasidai holiya bo`lib, o`z zamoni, davri va ijtimoiy-shaxsiy hayot sharoitidan shikoyat motivida yozilgan.

3. Ularning ikkisida ham qarilik o`tib ketgan davr bilan qiyoslanadi.

4. Qasidalarining ikkisi ham avtobiografik xarakterga ega.

Aytish kerakki, har ikki adib qasidalaridagi bu yaqinliklar X-XI asrlar qasidachiligidagi umumiy taraflardir.

Bu faktlar Yusuf Xos Hojib fors-tojik adabiyotining XI asrgacha yaratilgan madaniy merosi bilan puxta va mukammal tanish brlgan deb xulosa chiqarishga undab turadi. Bular shoirning Rudakiy ijodidan bexabar bo`lmagan degan taxmin qilishga asos beradi.

Yusuf Xos Hojibning qasida janri bobida yetuk san`atkorlardan ekanligini yuqorida ko`rdik. Shunga ko`ra, mazkur faktni biz shunday izohlashimiz mumkin: *Birinchidan*, bu hodisa shu janrning turkiy tilli adabiyotda shakllanish va

rivojlanishdagi o'ziga xoslikni, uning qadimiy ildizlaridagi qonuniyatlarni ko'rsatadi.

Ikkinchidan, bu holat Yusuf Xos Hojib ijodida mazkur janrning poetik shaklini o'zgartirishga bo'lgan urinish deb baholanishi mumkin.

Shu o'rinda bu hodisaning fors-tojik adabiyotida ham mavjudligini eslash o'rinlidir. Jumladan, Nosir Xisrav qasidalarining ko'pi masnaviy tarzida yozilgandir. Keyinroq, XVI asrida fors-tojik adabiyotining yirik namoyondasi Kamoliddin Binoiy ijodida ham bu hodisani qayd etishimiz mumkin.

Umuman, mazkur parchani to'liq qasida deyish mumkin. Unda an'anaviy nasib ham bor. 58 baytli bu qasida shunday boshlanadi:

Tug'ardin esa keldi o'ngdun eli

Ajun etguka achi ushtmah, yo'li.

Sharqdan avval bahor nasimi esib keldi,

Olamni bezash uchun jannat yo'lini ochti.

Qasidani kompozitsion jihatdan quyidagi bo'laklarga ajratish mumkin:

Bahor tasviri (1-17 baytlar).

Bug'raxon madhi (18-45 baytlar).

Shoirning tuhfas (46-50 baytlar).

Qasdi maqsad – tilak-duo (51-58 baytlar).

Mazkur qasidaning kompozitsion va g'oyaviy-badiiy xususiyatlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, u fors-tojik adabiyotida, xususan, X-XI asrlarda yaratilgan qasidalarga juda yaqin turadi. Qasida nasibida qushlar nomini keltirish, ularni sanash an'anaviy xarakterga ega³⁰. Biroq an'anaga ko'ra qushlarning umumiy sanog'i uch-to'rttadan oshmaydi. Bu jihatdan Yusuf qasidasi ulardan ancha oldinda turadi, chunki undagi yetti baytda (71-77) o'ndan ortiq qushlarning nomi tilga olinadi:

Qaz, o'rdak, qug'u, qil qalig'lig' tudi,

Qaqilayu qaynar yuqaru qudi.

³⁰ Bertels Y.E. К вопросу о традиции в героическом эпосе тюркских народов. // Советское востоковедение. IV, М.-Л.: 1947, с.77.

Ko'kis turna ko'kda unin yangqular,
Tizilmish tetirteg uchar, yelgurar.

Ularqush unin tuzdi, undar eshin,
Silig qiz o'qirteg ko'ngil bermishin.

Unin utti kaklik, kular qatg'ura,
Qizil ag'zi qanteg, qashi qap-qara.

Qara chumg'uq, utti suta tumshuqi,
Uni o'g'lag'u qiz uniteg taqi.

Chechalikdan sanvach utar ming unin,
O'qir suri Ibri tunin ham kunin

Ilik-kulmiz o'ynar chechaklar uza,
Sug'un-muyg'aq o'ynar yurir tab keza.

Mazmuni:

G'oz, o'rdak, oqqush, qil quyruqlar osmonni to'ldirdi,
(Ular) qag'illashib yuqori va quyini to'ldirib uchmoqda.

Birovi uchmoqda, ko'rgin, biri qo'nmoqda,
Birovi chopmoqda, ko'rgin, biri suv ichmoqda.

Ko'kish turna ko'kda ovoz chiqarib sayramoqda,
Tizilgan tuya karvonidek uchmoqda, qanot qoqmoqda.

Ular ovozini sozladi, o‘z eshini chaqirmoqda,
Go‘yo go‘zal qiz o‘z ko‘ngil berganini chorlagani kabi.

Kaklik yoqimli ovoz bilan sayradi, qah-qahlab kulmoqda,
(Uning) qizil og‘zi qon kabi, qoshi esa qop-qoradir.

Qora zog‘ tumshug‘ini ko‘pirtirib qag‘illadi,
(Uning) ovozi dod solib yilayotgan (erka) qiz ovozi kabidir.

Gulzorda bulbul ming ovoz bilan sayramoqda,
Tunu-kun (tinmasdan) suri ibri chalmoqda.

Ilik-qulmiz chechaklar ustida o‘ynamoqda,
Sig‘in-muyg‘oq bog‘ kezib o‘ynamoqda.

Bu yerda an‘anaviy talab bilan Yusuf Xos Xojib uslubiga xos bo‘lgan xususiyatning tabiiy ravishda omuxtalashib ketganini ta’kidlash o‘rinlidir. Yusuf Xos Hojib masnaviy va to‘rtliklarida ma’lum bir ‘badiiy obyekt’ tasvirida shu obyektни Yusuf Xos detallashtirib tasvirlashga intilish kuchliligini aytgan edik. Bu yerda o‘n qush va hayvonlarning ketma-ket sanalishi ham biz ‘detallashtirish’ deb atalgan usulning tabiiy oqibatidir yoki boshqacha qilib aytganda, Yusuf Xos Hojib shu o‘rinda ham, garchi bu yerda an‘anaviy talablarga bo‘ysunish shart bo‘lsa-da, o‘zining yorqin uslubini saqlab qola bilgan.

Qasida nasibidagi tabiat tasvirining berilishi ham an‘anaviy talablar natijasidir. Arab klassik she’riyatini tadqiq qilgan B.Y.Shidfar qasida janri haqida fikr yuritib shunday yozgan: ”Qadimgi arab poeziyasida peyzaj hamda u bilan bir butunlikni tashkil qiluvchi hamda u bilan birga qasidaning o‘rta, markaziy qismining tarkibiy bo‘lagi sifatida keluvchi sahro hayvonot olamining tasviri katta rol o‘ynaydi”. Shuningdek, IX-X asrlar fors-tojik qasidanavislari ham qasidada tabiat tasviriga alohida ahamiyat berishgan.

Demak, Yusuf o'z qasidasida tabiat tasviri va qushlarning nomini keltirish bilan bu an'anani turkiy xalqlar an'ansi bilan omixtalashtiradi ham. Tasvirdagi realistik lavhalarining kuchliligi esa Yusufning o'z salflaridan ilgarilab ketishini ta'minladi.

Shunday qilib, Yusuf Xos Hojib turkiy tilli xalqlar adabiyoti tarixida fors, arab, shuningdek, turkiy tilli xalqlar madaniyati bilan aloqada bo'lgan shoirlarning eng birinchilaridan edi. Uch xalq an'analari bilan mustahkam, tabiiy aloqadorlik unga o'z she'riyatida uziga xos sintezni amalga oshirish uchun qo'l keldi. Umuman olganda, shoir arab-fors adabiyotida qonunlashgan qasida janrining turkiy modelini yaratdi. Yusuf Xos Hojibning buyuk xizmatlaridan biri ham shundaki, u bu janrning turkiy adabiyotdagi dastlabki, ammo yetuk namunalarini yarata oldi. Shoir qasidalarini orqali juda nozik didli, yuksak insoniy tuyg'ular-gumanizm, erkparvarlikni kuylovchi ajoyib lirika ustasi ekanligini namoyish eta oldi.

Xullas, "Qutadg'u bilig" dagi janrlar tizimining mavjud holati haqidagi kuzatishlar quyidagi xulosalarni beradi:

XI asr turkiy tildagi yozma adabiyotning yirik namunasi bo'lmish «Qutadg'u bilig» janrlar tizimiga ko'ra ancha murakkab asardir. Undagi janrlar tizimining umumiy holati XI asrdagi turkiy yozma adabiyotda janrlararo «tabaqalanish» ancha jadallashganini, bu jarayon «Qutadg'u bilig»dagina yorqin tus olganini ko'rsatadi.

"Qutadg'u bilig"dagi mavjud janrlarning ildizi juda «shaxobchali»dir. Ularda bir tomondan milliy an'ana (ham ogzaki, ham yozma), ikkinchi tomondan, boshqa xalqlar adabiyotining (asosan fors-tojik, shuningdek arab v.b.) ta'siri ko'rinadi. To'rtlik janrining shakllanishi va rivoji milliy an'ana bilan bog'liq bo'lsa, masnaviy va qasidalarda (ularning shakliy va mazmuniy xususiyatlarida, shuningdek tasvir prinsiplarida) ko'proq fors-tojik adabiyotining roli ko'rinadi. Binobarin, "Qutadg'u bilig" ana shu ikki an'ananing juda murakkab qonuniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan asar deb aytish mumkin. Demak,

“Qutadg‘u bilig” xuddi mana shu yo‘nalishlarning o‘zaro birikkan joyida maydonga keldi.

«Qutadg‘u bilig” turkiy tildagi adabiyotning keyingi bosqichlarida mustaqillik kasb etgan ko‘pgina janrlarning shakllanish jarayonida alohida va muhim bosqich bo‘ldi. Ayniqsa, masnaviy, qasida, to‘rtliklar``Qutadg‘u bilig”danoq mustaqillik da’vosini qo‘ya oladi. Munozara, tuyuq, ruboiy kabi janrlarning turkiy yozma adabiyotdagi rivoji ham xuddi mana shu “Qutadg‘u bilig” dan boshlanadiki, bularning hammasi asarning turkiy xalqlar adabiyoti tarixida qanchalik katta rol o‘ynaganligiga jiddiy dalildir.

II BOB. “QUTADG‘U BILIG”NING VAZN XUSUSIYATLARI, QOFIYASI VA BADIY TASVIR PRINSIPLARI

2.1. “Qutadg‘u bilig”da vazn va qofiya masalasi

Aruzga tanqidiy nuqtai nazardan yondoshib, uning «qiyin tushunish» sabablarini izohlashga intilish adabiyotshunoslikda keyingi davrlarda yuzaga keldi va aruz yangi davr adabiyotshunoslik ilmi nuqtai nazaridan baholana boshladi.

Mazkur ishlarda asosiy e’tibor aruzning vazn sifatidagi mohiyatiga alohida e’tibor beriladi. Ularning ayrimlarida esa turkiy aruzning xususiyatlari ko’rsatiladi. Shunga qaramay turkiy aruzning paydo bo’lishi, uning takomili va o’ziga xos xususiyatlari chuqur ilmiylikka asoslangan maxsus kuzatishni talab qilmoqda. Bu jihatdan qadimgi yozma yodgorliklarni puxta o’rganish jiddiy xulosalar chiqarishda muhim o’rin tutadi. XI asr yozma adabiyotining eng muazzam va hozirgi yagona obidasi bo’lmish “Qutadg‘u bilig” vaznini o’rganish bu sohada jiddiy qadam bo’lishi mumkin.

“Qutadg‘u bilig” aruzning mutaqorib bahrida yozilgan. Ammo asarning o’rgangan ko’pgina olimlar uning vazniga turlicha qarashadi. Ularning ba’zilari asar barmoq vaznida, ayrimlari aruzda deyishadi, yana ba’zilari borki, ular asarning aruz vaznida yozilganligini etirof etsalar ham, asar muallifi «vaznda ayrim kamchiliklarga yo’l qo’yilgan» deb hisoblaydilar.

Qayum Karimov juda to’g’ri ko’rsatganiday, “Qutadg‘u bilig”ning «Devoni lug‘at it-turk» bilan bir davrda yaratilgani va undagi misralarning “Devoni lug‘at it-turk”da keltirilgan she’rlarga o’xshash 11 bo’g’inli bo’lishi ayrim tadqiqotchilarning ana shunday yangilash fikrlarga kelishiga sabab bo’lgan.

Asarda shunday parchalar uchraydiki, u aruzning ham, barmoqning ham talablariga bab-baravar javob bera oladi. Shunday parchalardan ayrimlarini keltiramiz:

66. Qurimish / yig‘achlar /tunandi / yashil,
Bezandi / yapun, al /, sariq ko‘k, / qizil.

*Yaprog‘ini to‘kkan daraxtlar (yana) yashil kiyindi,
Ol, sariq, ko‘k, qizil rang bilan bezandi.*

96 Qayusi / To‘g‘ardin / tutar ming / tanuq,
Qayusi / Batardin / tapug‘chi / anuq.

*Bazilari Sharqdan ming-ming hadyalar tutmoqda,
Bazilari G‘arbdan (kelib) xolis xizmatda turmoqda.*

Eshitti / o‘g‘ul, ko‘r, / atasi / so‘zin,
Til achi / ataka, / evurdi / yuzin.

*O‘g‘ul otasining so‘zini eshitdi, ko‘r,
So‘zga til ochdi, otasi tomonga yuz o‘girdi.*

Isinur / et, er tark/ bag‘irsaq, / bo‘lur,
Bag‘irsaq / kishilar/ tapug‘saq,/ bo‘lur.

Keltirilgan misollarning barchasi ham aruz, ham barmoq vazniga hech qeyinchiliksiz tatbiq etilishi mumkin. Ular aruzning fauvlun, fauvlun, fauvlun, fauvl (mutaqorib), barmoqning esa $3+3+3+2=11$ yoki $6+5=11$ vazniga mos kelaveradi.

Asarda bulardan tashqari 11 bo‘g‘inli barmoqning boshqa ko‘rinishlariga ham mos kela oladigan parchalar ko‘plab uchraydi:

Yuzi / ko‘rklig erdi, / ko‘rub ko‘z / qamar,
So‘zi / yumshoq / erdi, /tili tuz / tamar. ²⁻²⁻²⁻³⁻²

*Yuzi (shu darajada) ko‘rkli edi(ki), ko‘rib ko‘z qamashardi,
So‘z(lar)i yumshoq edi, tilidan haqiqat yog‘ardi.*

Necha (qachsa) axir (o‘lim) tutg‘usi, 2-2-2-2-3

Necha (qalsa) axir (o‘lim) yetgusi.

(Kishi) qancha qochmasin, o‘lim oxir tutadi,

(U) qanchalik (o‘lmay) qolmasin, o‘lim oxir yetadi.

Yana nardu (shatranj) bilur) ersa kaz, 4-2-2-3

Hariflari (andin) o‘lar) ersa kaz.

Yana nard va shatranjni yaxshi biladigan bo‘lsa,

Raqiblari undan juda bukilsa (mot qolsa).

“Qutadg‘u bilig”dan bunday namunalarni ko‘plab keltirish mumkin, tatar olimi Xatib Usmonov shunday holatlarning ko‘pligiga tayanib “Qutadg‘u bilig” ko‘p o‘lchamli asar degan xulosaga kelgan edi.

Demak, tadqiqotchilar o‘rtasida yuzaga kelgan qarama-qarshi fikrlar asar vazni tabiatini yetarli o‘rganmaslik natijasidir.

Aslida asar aruzning mutaqorib bahrida yozilgan. Quyidagi baytlarni ko‘raylik:

Su bashchi tuza tursa yo‘rtug‘ qurin,

Iriglarni yig‘sa, yetursa so‘ngin.

Lashkar boshi soqchi saflarini tuzib tartib bersa,

Abjirlarni yig‘sa, (soqchi saf) so‘ngidan yetkazsa

Yaqut berdi O‘gdulmish, aydi: tugal

Ko‘ni so‘zlading so‘z, aya ezgu fal.

Javob berdi O‘gdulmish, aytdi: Tugal

So‘zni to‘g‘ri so‘zlading, ey ezgu fol (ya‘ni bashorat qiluvchi).

Yanut berdi O‘zg‘urmish , aydi: bu so‘z

Uqushqa yaqin ul, aya ko‘ngli tuz

Javob berdi O‘zg‘urmish, aytdi: bu so‘z(lar)

Zakovatga yaqindir, ey ko‘ngli to‘g‘ri.

Mana shu keltirilgan baytlarning hech qaysisini barmoqning biror o‘lchoviga solish mumkinmikan? Albatta, yo‘q, demak, ``Qutadg‘u bilig’’ni

Barmoq vaznida degan tadqiqotchilar tamomila nohaqdirlar.

Shu o‘rinda yana bir narsani esda tutish lozimga o‘xshaydi. Asar vazni haqida mulohaza yuritgan Ko‘prilizoda shunday yozadi: «Vazn masalasina galanda bu manzuma ba’zi Ovrupa munaqqidlarining yanglish iddiolarina rag‘man hijoiy bir vaznla dugul, do‘g‘rudan do‘g‘ruya «Shohnoma`` vaznla yozilmish va Eronning butun bu qabil asarlarida o‘ldug‘i kibi, masnaviy shakli ixtiyor edilmishdur. U zamonaki turkcha kendi bunyasina yobonji o‘lan aruz vaznida tabiiy birdan birga imtizoj idmayajagi uchun nazm cho‘q saqt va qusurlidur va ishta bir cho‘qlarning uni hijo vaznla yozilmish ad itmalarining bashlicha sabablarindin birida budur... faqat bilxossa «vaznda`` Eron adabiyotining qutli ta’siri kendini ko‘rsatmoqdadir « .

Ko‘prilizoda bu bilan ``Qutadg‘u bilig’’ni hijo vaznida yozilgan deyuvchilarga qarshi turgan va buning sababini ham, bizningcha, to‘g‘ri ko‘rsatib bergan.

Bu yerda eng avvalo nazariy jihatdan haligacha chalkashlik tug‘dirayotgan bir hodisaga to‘xtab o‘tish joizdir. Ma’lumki, ko‘pgina adabiyotshunoslar aruzning turkiy tilda paydo bo‘lishini tamomila arab hamda fors-tojik she’riyati bilan bog‘lashadi.

Masalaga bunday yondashish o‘zini to‘la oqlamaydi, chunki «Qadimgi O‘rxun Yenisey yodgorliklarini (Y-YIII asrlar), Maxmud Qoshg‘ariyning «Devon``ida (XI asr) mavjud bo‘lgan maqol va qo‘shiqlarni, nisbatan keyinroq

qayd etilgan qozoq, tatar, chuvash va boshqa turkiy tilli xalqlar topishmoqlari, maqol va qo'shiqlarini ko'rib chiqilishida har ikki ritmik tiplar (aruz va barmoq)ning barcha eng muhim xususiyatlarini birlashtiradigan matnlarning juda ko'plab namunalariga duch kelamiz``.

Aruz va barmoqdagi «eng muhim xususiyatlarning`` bir she'rdagi sinkretik holda ko'rinishi aruzning turkiy til zaminida qadimdan ichki imkoniyat sifatida mavjudligini ko'rsatadi. Turkiy she'riyat taraqqiyotining dastlabki bosqichida bu ichki imkoniyat reallikka aylana olmay kelgan, ular bir-biridan ajratilmagan, asrlar davomida esa ikki she'riy tizim yuzaga kelgan. Xuddi shu o'rinda arab va fors-tojik adabiyoti, ularni poeziyasi, bu jarayonga katalizatorlik rolini o'ynagan, ya'ni ikki she'riy tizimning ajralib chiqish jarayonini tezlashtirgan. Bizningcha, vazn masalasida arab va fors-tojik adabiyotining ta'siri deganda huddi shu narsani tushunish kerak.

Zero, «har qanday ta'sir tarixan qonuniy va ijtimoiy sababiga ega bo'ladi: uning mumkin bo'lishi uchun katta yoki kichik o'xshash va muayyan shaklga tushgan yo'nalishlar (g'oya va kayfiyat, mavzu va obrazlar) shu mamlakatda, shu ijtimoiy sinf ideologlarida mavjud bo'lishi kerak. A.N. Veselovskiy ijtimoiy tafakkurning o'xshash taraqqiyoti oqibati natijasida yuzaga kelgan bunday holatlarda «Ro'para keluvchi oqim`` (vstrechnoye techeniye) haqida gapirgan edi. O'zlashtirish, - A.N.Veselovskiy to'g'ri ta'kidlaganiday,-qabul qiluvchidan bo'sh yerni emas, duch keluvchi oqim, tafakkurning o'zaro yaqin yo'nalishini, fantaziyaning o'xshash obrazlarini taqozo etadi. Shunday qilib «o'zlashtirish`` nazariyasi «asos`` va aksincha nazariyani tug'diradi``.

Qadimda, aniqrog'i``Qutadg'u bilig''dan oldin turkiy aruz namunalari bor edimi? Albatta bo'lgan. Bunga quyidagilar ham dalil bo'la oladi: 1)``Qutadg'u bilig'' singari aruzning murakkab talablariga mukammal tarzda javob bera oladigan asarning ma'lum bir adabiy ana'nasiz yuzaga kelishi mutlaqo mumkin bo'lmagan holdir. 2) Bizga ma'lum bo'lgan «Devonu lug'ot-it turk`` turkiy xalqlar og'zaki ijodining eng qadimgi namunalarini o'zida jamlagan yodgorlikdir. Unda shunday

parchalar uchraydiki, bu parchalar barmoq talablariga qay darajada javob bersa, aruz talablariga ham shu darajada javob bera oladi. 3) Shuningdek, turkiy xalqlar og‘zaki ijoda namunalari ham bu xil she‘rlar ko‘plab topiladi:

Mutaqorib aruzning keng iste‘mol qilinadigan bahrlaridan biridir. An‘anaga ko‘ra bu bahrda qahramonlik va jangnoma asarlari bitilgan.

Sharqning jahonga mashhur bo‘lgan asarlari «Shohnoma» (Firdavsiy), «Iskandarnoma» (Nizomiy), «Oynai Iskandariy» (Amir Xisrav Dehlaviy), «Xiradnomai Iskandariy» (A. Jomiy), «Saddi Iskandariy» (A.Navoiy) ham shu vaznda yozilgan.

Mutaqoribning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat va u «Qutadg‘u bilig»da qanday aks etgan?

Mutaqorib bahrining solim rukni bir qisqa va undan so‘ng kelgan ikki cho‘ziq (u - -) bo‘g‘inning takroridan hosil bo‘ladi. Rukndagi ba‘zi bo‘g‘inlarning tushib qolishi yoki ruknning takrorlanish miqdoriga ko‘ra mutaqoribning bir necha shakli yuzaga kela oladi. A.Rustamov uning 12 turini ko‘rsatgan. Bobirda esa uning 39 xiliga misollar keltirilgan.

Ruknlar bayt davomida 4, 6, 8 marta qo‘llagan bo‘lishi mumkin. Shunga muvofiq vazn nomidan so‘ng murabba’, musaddas yoki musamman kabi so‘zlardan biri qo‘shiladi. «Qutadg‘u bilig»da rukn (u - -) sakkiz marta takrorlangan, shuning uchun u mutaqoribi musamman deyiladi. Asarda mutaqoribning uch ko‘rinishidan: solim, mahfuz, maqsur turlaridan foydalanilgan. Bu ko‘rinishlardan keyingi ikkitasi, ko‘pincha, bir baytning o‘zida ham yondosh kela oladi:

Bu din dunya birla birikmaki sarb,

v - - v - - v - - v -

Qavushmas ekigun muni bilsa tab.

v - - v - - v - - v -

Shuningdek, mutaqoribning solim ko‘rinishi musabbag‘ bilan ham kela olishi mumkinligini Yusuf tajribasida kuzatamiz:

Yo‘q ersa ayu bersu o‘ngdi to‘ru, qiliq,

v - - v- - v - - v - -

Tuzun to‘rka kechsu, o‘tunug‘ surayi.

v - - v - - v - - v - -

mazmuni: *Bo‘lmasa odat, qoida- qonun, fe‘l-atvor (qanday bo‘lishini) aytib bersin(lar), Yaxshilar to‘rga chiqsinlar, tubanlarni surib chiqarayin.*

Ko‘rinadiki, zihoflardan ayrimlari o‘zaro, ayrimlari esa solim vaznlar bilan yondosh kela oladi. Bu hol vaznni «buzmaydimi``? Umuman buni qanday izohlash kerak?

Solim rukn (fauvlun)da uch bo‘g‘in, uning hazfida (Mahfuzda, ya‘ni faulda), 2 bo‘g‘in bor, demak, bir baytning o‘zida birinchi misrani solim, keyingisini mahfuz (yoki aksincha)qilish vaznning buzilishiga olib keladi. Shunga ko‘ra ular o‘zaro yondosh keltirilmaydi. Maqsurda-chi? Maqsurda ham bo‘g‘in o‘zgaradi, ya‘ni fauvlundan fauwl qoladi, ammo bu mahfuz rukndagi (fa‘ul) bo‘g‘inlar bilan tengdir. Maqsur ruknning oxirgi bo‘g‘ini nisbatan cho‘ziq bo‘ladi, lekin bu o‘ta cho‘ziqlik odatdagi o‘ziqlikdan bir ozgina farq qilganligi uchun talaffuzda sezilmas darajada bo‘ladi. Shuning uchun ham u mahzuf bilan yonma-yon qo‘llanaveradi.

Solim vazni bilan musabbag‘ning bir bayt doirasida amal qila olishi ham xuddi shunday xarakterga ega. Bunda ham oxirgi bitta bo‘g‘in o‘ta cho‘ziqlik kasb etadi, lekin bu cho‘ziqlik bitta bo‘g‘inning qisqarishi hisobiga emas, aksincha keyingi bo‘g‘inga bir sokinning qo‘shilishi bilan yuzaga keladi. Demak, bknda ham bo‘g‘inlarning umumiy soni har ikki misraniki teng bo‘lgani holda, faqat oxirgi bo‘g‘inlargina o‘zaro farqlanadi. Yuqorida ko‘rganimizdek, bunday bayt qo‘yidagi sxemaga ega bo‘ladi:

v - - v - - v - - v - -

v - - v - - v - - v - ~

yoki:

V - - V - - V - - V - ~

V - - V - - V - - V - -

Demak, bunday hollarda ritmda ro'y bergan o'zgarish deyarli «qayd etilmaydi». O'z-o'zidan ravshanki, vazn ham buzilmaydi. Shuni qayd qilish joizki, aruzdagi bunday istisnolarni Yusuf dadillik bilan qo'llay oldi. Tabiiyki, bunda Yusuf Xos Hojibga arab va fors-tojik adabiyoti tajribasi bilan yaxshi tanishligi qo'l kelgan, shuningdek, turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlari uni shu yo'lni tutishga boshlagan.

Asarda vaznni buzib ko'rsatuvchi ayrim xolatlar borgan o'xshab tuyuladi. Mana shu holatlar ko'pgina tadqiqotchilarni chalkashtirib, ularning asar vaznida ayrim kamchiliklar, yetishmovchiliklar bor, degan noto'g'ri fikrga kelishiga sabab bo'lgan. Chunki bu XI asrda yaratilgan asarning ko'chirilgan nusxasi nuqson va kamchiliksiz deb bo'lmaydi. Nusxa ko'chiruvchilar tomonidan turli, tahrirlar bo'lishi mumkinki, bu ayrim o'rinlarda bo'lsa ham, uning vaznida aks etmasdan qolmagan. . Shunday o'rinlarni sinchiklab o'rganish ko'rsatadiki, Yusuf bu holatlarda ham turkiy til xususiyatlariga tayangan holda aruz talablarini yuksak darajada ado etgan.

“Qutadg'u bilig” aruzda yozilgan birinchi yirik turkiy yodgorlik bo'lganligi sababli, uning **qofiya** tizimini arab-fors qofiya nazariyasi nuqtai nazaridan o'rganish katta nazariy-tarixiy ahamiyatga ega.

Asarning qofiya tizimi haqida I.V.Steblevaning ayrim tadqiqotlarini hisobga olmaganda, deyarli hech qanday ish qilinmagan. I.V.Stebleva o'z tadqiqotlarida arab-fors qofiya nazariyasining turkiy tilli adabiyotga tadbiqui masalalarining ba'zi tomonlarini tadqiq etgan. Shuningdek, “Qutadg'u bilig” tadqiqotchilaridan Q.Karimov ham bu masalaga yo'l-yo'lakay to'xtalib o'tgan (Zero, tadqiqotchi bu sohani o'z o'rganish obyekti hisoblamagan).

Shunga ko'ra asar qofiya tizimini o'rganish poetika tarixi uchun muhim material vaxulosalar beradi. Asar qofiya tizimini o'rganish shuni ko'rsatadiki, unda klassik nazariyaga ko'ra ma'lum ko'plab turlaridan unumli foydalanilgan. Qadimgi

turkiy tilli adabiyotdagi she'riyat, garchi alliteratsiyaga asoslangan bo'lsa-da, so'ng qofiyalardan holi emas edi, biroq undagi so'ng qofiyalar elementar, embrional tarzda mavjud bo'lgan. So'ng qofiyalarning ko'pchiligi grammatik tuzilmalarning parallelligi sifatida, asosan bir xil so'zlarning takroriga tayanardi.

O'zaro tovush uyg'unligini hosil qiluvchi ana shu takrorlar turkiy poeziyada keyinchalik so'ng qofiyalarning paydo bo'lishiga olib keldi va bu hodisa ``Qutadg'u bilig''da o'zining yetuk kamoliga erishdi. Shuni ham aytish kerakki, so'ng qofiyali poeziya dastlab, turkiy xalqlarning og'zaki ijodida paydo bo'lgan. Bunga Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'ot it-turk``idagi faktlar dalil bo'la oladi, chunki «Devon`` materiallari, ko'p olimlarning fikriga qaraganda, VIII-X va hatto V asrlarga taalluqlidir. Albatta, «Devoni lug'ot it-turk``dagi ayrim (xususan, «shoir aytubdur`` deb boshlanadigan) parchalarning yozma adabiyotga aloqadorligini ham nazarda tutish kerak.

Klassik nazariyaga ko'ra qofiyaning negizini raviy harfi tashkil qiladi. Raviylari mos bo'lmagan qofiyali she'r aybli hisoblanadi. Asar qofiya tizimini o'rganish asosida uning quyidagi tiplarini ajratish mumkin:

a) Arab-fors qofiya nazariyasi talablariga to'la mos keladigan qofiyalar.

b) Arab-fors poetikasining qat'iyshakliy meyorlariga ko'ra o'rnatilgan kanonlar doirasidan chiquvchi, biroq X-XI asrlar poeziyasi uchun meyoriy hisoblangan qofiyalar.

v) ``Qutadg'u bilig''ning o'zi uchun xos bo'lgan, ya'ni keyingi davr arab-fors qofiya nazariyasi talablari bilan mos kelmaydigan qofiyalar.

Ko'p asrlar mobaynida arab-fors poetikasi ishlab chiqqan kanonlashgan talablarga javob beruvchi qofiyalar:

I. Oddiy qofiya ya'ni faqat raviylari mos bo'lib, boshqa harflarining moslashishi shart bo'lmagan qofiya:

Bu ezgu tilagli neku ter, eshit,

Qamug' ezguluk qil, o'zungga ish et.

Yaxshilik tilovchi (kishi) nima deydi eshit:

Faqat yaxshilik qil, (yaxshilikni) o'zingga kasb qilib ol.

II. To'liq qofiya ya'ni ravidan oldin bir yoki bir necha ohongdosh tovushlari takrorlangan qofiya. Bular muqayyad qofiya deb yuritiladi. Asarda bu qofiyani ko'plab turlari bor: agar qofiya raviy harfi bilan tugab, unga vasl, xuruj, mazid va noyira qo'shilmagan bo'lsa, muqayyad qofiya deyiladi.

«Qutadg'u bilig»da muqayyad qofiyaning qo'yidagi turlari bor:

1. Muqayyadi mujarrad:

Ko'ngulsuz qayu yerka mangsa adaq,

Necha yer yaqin ersa, bo'ldi yiraq.

Кўнгул истамасдан қаерга қадам ташланса,

(V) ер қанча яқин бўлса ҳам, узоқ туюлади.

k-raviy

2. Ta'sisli muqayyad qofiya uchramaydi.

3. Ta'sis va daxilli muqayyad qofiya:

Avurtasi ezgu kishi tut, orig',

O'g'ul-qiz arig' ko'pg'a, turg'a forig'.

Murabbiyni yaxshi kishilardan olgin,

O'g'il-qiz pok o'sadi, (nomatlub ishlardan) forig' turadi.

4. Radifi asliyli muqayyad qofiya:

Ey elig, bu nafsing yag'ila qatig',

Tilakini berma, yeturma tatig'.

Ey elig, bu nafsingga (qarshi) shiddatli jang qil,

Tilagini berma, halovat yedirma.

g'-raviy, i-radifi asl

5. Radfi mufratli muqayyad qofiya:

Esizlar esizliklarini esmasa,

Sen esma, qinin berka tutg'il basa.

Yomonlar yomonliklarini kamaytirmasa(lar)

Sen (ham) azob (berish)ni kamaytirma, yana qamchini tutgin.

a-raviy, s-radifi mufrad

asarda boshqa turdagi qofiyalar ham mavjud.

Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, «Qutdag'u bilig»da klassik qofiya tipini 16 turi boshqalarga qaraganda faol qo'llangan. «Qutdag'u bilig»dagi bu faktni Alisher Navoiyning «Sabbai sayyor» dostoni hamda H.Olimjonning «Zaynab va Omon» dostonlari qofiyalari bilan solishtirsak, turkiy adabiyotda klassik qofiya tiplardan 16 tasidan kengroq foydalanilganligini ko'rish mumkin. Bulardan beshtasi, muqayyad qofiya va 11 tasi mutlaq qofiya turlaridandir. (Muqayyad qofiyadan: muqayyadi mujarrad, dahilli, radfi mufradli, radfi murakkabli, qaydli muqayyad, mutlaq qofiyadan mutlaqi mujallad, radfi mufratli qaydli hurujli, radfi murad va hurujli, qayd va hurujli, mazidli, radfi mufrad va mazidli noyirali, radfi mufrad va noirali, radfi asliy va noyirali mutlaq qofiya).

Shu o'rinda radfi asliyli qofiyaning boshqalarga qaraganda eng ko'p qo'llanganiga sabab nima degan haqli savol tug'ilishi tabiiydir. Ma'lumki, «Qutdag'u bilig» aruz vazning mutaqoribi musammani maqsur (solim va maxzuf turlari ham bor) baxrida yozilgan bo'lib uning paradigmasi v--v--v--v- (fauvlun fauwlun fauwlun faul)dir. Damak, vazning har bir rukni cho'ziq bo'g'in bilan tugashi shart, bu o'z-o'zidan (radifli va mutlaq qofiyalarni hisobga olmaganda) muqayyad qofiyaning raviysi oldida kelgan unli cho'ziq bo'lishi taqozo qiladi. Mana shu fonetik sharoit asar qofiya sistemasi tarkibida radfi asliyli qofiyalar salmog'ini oshirishga sabab bo'lgan.

IV. Qofiyaning yana bir maxsus turi borki, u ham she'rning tovush tarkibiga, emotsional ta'sirchanligiga katta kuch bag'ishlaydi. Sharqda uni qofiyayi hojibdor deyishadi. Shu o'rinda atamani tushunishga bir oz aniqlik kiritishga to'g'ri keladi. Turkiy she'riyat qonuniyatlarini o'rgangan M.Hamroyev o'zining «Uyg'ur klassik va xozirgi zamon she'riyatida qofiya» degan asarida hojibni radif bilan shuningdek, ichki qofiya va anaforalar bilan qorishtirib yuborgan. Buni filologiya fanlari kondidati V.Rahmonov o'z vaqtida ko'rsatgan edi. Vaholanki, radif qofiyadan keyin takrorlanib keluvchi, ma'lum misra yoki bandlar doirasida

qo‘llanuvchi figura. Hojib ham she‘r ohangdorligi va emotsional quvvatini oshiruvchi element, ammo u qofiyadan oldin keladi. Atamaninglug‘aviy ma‘nosi ham shuni taqazo qiladi: hojib-parda demakdir, ya‘ni qofiya va misraning boshqa so‘zlari o‘rtasigi aloqani ta‘minlovchi o‘ziga xos poetik bo‘lakdir.

Dostonda bunday qofiyalar ancha keng ishlatilgan. Hojibli qofiyalarni qo‘llashda alohida mahorat ko‘rsatilgan. Hojib sifatida tub va yasama, sodda va qo‘shma so‘zlar, so‘z birikmalaridan ham keng foydalanilgan, xatto ko‘makchi, bog‘lovchi va undovlarning ham shu vazifasida kelganligini ko‘rish mumkin.

O‘zung sizg‘urursa o‘g‘ul-qiz tegu,

Bu emgag biligli o‘g‘ul-qiz qayu.

O‘g‘il-qiz deb o‘zingni ko‘ydirasan,

Bu mehnatni biluvchi o‘g‘il-qiz qani?!

Keltirilgan faktlardan ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi vositalar bilan shoir qofiya ko‘effetsentini eng oxirgi nuqtasigacha oshirishga erishgan. U qancha yuqorilashsa, baytning ritmik ohangdorligi va undagi lirizm ham shuncha ko‘tariladi. Bu esa asardagi didaktik ruhning kitobxonga yetkazishda juda katta ta‘sir kuchini ko‘rsatadi.

2.2.

Qutadg`u bilig`ning badiiy tasvir prinsiplari.

Yusuf Xos Hojib aruzda benuqson bo`lgan deb ayta olamiz. Buni birgina sinonimlardan foydalanishni kuzatish orqali ham aniqlash mumkin.

Shoir sinonimlardan foydalanar ekan, ularning istalgan har birini ishlatavermaydi. Balki ularni o`z fikriga, g`oyasiga va hatto she`r ritmikasiga bo`ysundirib tanlaydi, saralaydi.

Ugush so`zda artuq asig` ko`rmadim

Yana so`zlamishda asig` bo`lmadim.

**Ya`ni:** *Ko`p so`zda ortiq foyda ko`rmadim,*

Yana (ko`p) so`zdashdan naf topmadim.

Bu yerda qo`llangan sinonimlarning (o`gush, artuq) she`riy vazn bilan chambarchas bog`lanib ketganini ko`rish mumkin. Ma`lumki, mutaqorib ruknlari qisqa bo`g`in bilan boshlanib uzun bo`g`inlar bilan tugaydi. Bordi-yu, yuqoridagi baytda keltirilgan sinonimlarning o`rnini almashtirsak, she`rning vazni, ya`ni she`riy musiqa tamomila yo`qoladi. Chunki «artuq`ning birinchi bo`g`ini yopiqdir, vaholanki, mutaqorib bahrining ruknlari qisqa bo`g`in bilan bog`lanishini bilamiz.

Boshqa bir baytda «o`gush` so`ziga «artuq` emas, balki «tuman` so`zi sinonim sifatida tanlangan:

O`gush so`zlama so`z birar so`zla az,

Tuman so`z tugunin bu bir so`zda yaz.

**Ya`ni:** *So`zni ko`p so`zlama, bir oz ozroq so`zla,*

Tuman ming so`z tugunini (ya`ni jumbug`ini) shu bir so`zda yech.

Bu yerda tuman so`zi ruknning boshida kelayapti, chunki uning birinchi bo`g`ini «tu`-ochiq (qisqa)dir. Uning o`rniga «artuq`ni qo`yib bo`lmasligi o`z-o`zidan ko`rinib turibdi. Shuningdek, shoir o`z asarida ko`p qo`llagan telim, ko`p, artuq, ancha, cho`q singari «o`gush` so`zining sinonimik qatoriga kiruvchi so`zlarni ham mazkur baytda qo`llamagan. Buni nima bilan izohlash kerak?

Bu sinonimik qatordagi ko‘p, cho‘q sinonimlari «tuman``ning o‘rniga da‘vogarlik qilolmaydi, chunki ular o‘sha so‘z egallab turgan ritmik pozitsiyani to‘liq band qilolmaydi, aniqrog‘i ular «tuman``dan bir bo‘g‘in kam. Zikr etilgan sinonim so‘zlar shuning uchun ham tumanning o‘rnini bosolmaydi. «Atuq`` so‘zi to‘g‘risida to‘xtalmaymiz, chunki bu so‘zga yuqorida izoh berib o‘tdik. «Ancha`` ham «artuq`` so‘zi bilan bir xil sifat xususiyatlariga ega bo‘lganligidan unga ham tuxtalishning hojati yo‘q. Biroq «qalin``, «telim`` so‘zlari «tuman`` bilan bir xil fonetik xususiyatga ega, ya’ni ular ham qisqa bo‘g‘in bilan boshlanib, uzun bo‘g‘inga ulanuvchi ruknga mos keladi. Shunday bo‘lishiga qaramay shoir nima uchun ularni qo‘llamagan?

Buni tushunish uchun baytdagi alletiratsiyaga diqqat qilish kerak. Qadimgi turkiy poeziyada juda kuchli o‘rin olgan bu hodisa (ya’ni alletiratsiya)``Qutadg‘u bilig’ka ham kuchli ta’sir qilganligi ma’lum. Mana shu tarixiy-adabiy jarayonni nazarda tutsak, ikkinchi misradagi «tugunin`` so‘zining talabi bilan «tuman`` so‘zidan boshqa har qanday shu sinonimik qatordagi so‘zlarning ortiqchaligi ma’lum bo‘ladi.

Bu hodisa Yusuf Xos Hojibning sinonimlaridan foydalanishda juda ehtiyotkorlik va zukkolik, sinchkovlik ko‘rsatganining yorqin dalilidir.

Yusuf Xos Hojibning vazn talabi bilan sinonim so‘zlardan foydalanish san’ati diqqatga sazovardir. Buni «yaxshi`` so‘zining sinonimik qatoriga yana bir marta oltita so‘z birlashgan: «talū, kaz, edshu, tuzun, silig, neku, yeg``. Bular o‘zlaridagi ma’no nozikliklari tishqari vazniy ehtiyoj tufayli ham o‘ziga xosliklarga ham ega. Bulardan talu, tuzun, silig, neku ko‘proq rukn boshida kelsa, qolganlari rukn ichida yoki uning oxirida joylashadi.

«Qutadg‘u bilig’dagi sinonimlarning yana bir xususiyati, yuqorida aytganimizday she’r qofiyasi bilan aloqadordir.

Kimningdir eshitgu kerak so‘z chini,

So‘zug kimka ayg‘u, menga ay ko‘ni.

ya`ni:

So 'zning chinini kimdan eshitish kerak,

So 'zni kimga aytish kerak, menga to 'g 'risini ayt.

Bu misolimizda «chini``, «ko'ni`` sinonimlari ishlatilgan. Asarni ko'zdan kechiradigan bo'lsak, ``Qutadg'u bilig''da bu so'zning yana «butun`` sinonimii ham bor. Keltirilgan baytdagi sinonimning qo'llanishi mutaqorib baxridagi vazn talabi bilan izoxlanadi. Chunki asar vazni mutaqoribi musammani mahfuz (unda maqsur va solim ko'rinishlari ham bor). – O'n bir bo'g'indan iborat bo'lib, qofiyalardan tashqari so'zlar to'qqiz bo'g'inni tashkil qiladi. Demak, bu o'rinda ikki bo'g'indan tashkil topgan «chini`` va «ko'ni`` so'zlarining qo'llanishi maqsadga muvofiqdir, «butun`` esa o'zining bosh shaklida qofiyaga, she'riy ohangdorlik talabiga, ya'ni «chini`` yoki «ko'ni``ga javob Bera olmaydi, unga egalik qo'shimchasi –i, qo'shilganda esa vaznga «sig'may qoladi``. Shuning uchun ham Yusuf yuqoridagi sinonimlarni tanlab to'g'ranuvchi ruknga mos keladi. Shunday bo'lishiga qaramay shoir nima uchun ularni qo'llamagan?

Buni tushunish uchun baytdagi alletiratsiyaga diqqat qilish kerak. Qadimgi turkiy poeziyada juda kuchli o'rin olgan bu hodisa (ya'ni alletiratsiya) ``Qutadg'u bilig''ka ham kuchli ta'sir qilganligi ma'lum. Mana shu tarixiy-adabiy jarayonni nazarda tutsak, ikkinchi misradagi «tuginin`` so'zining talabi bilan «tuman`` so'zidan boshqa har qanday shu sinonimik qatordagi so'zlarning ortiqchaligi ma'lum bo'ladi.

Bu hodisa Yusuf Xos Hojibning sinonimlaridan foydalanishda juda ehtiyotkorlik va zukkolik, sinchkovlik ko'rsatganining yorqin dalilidir.

Yusuf Xos Hojibning vazn talabi bilan sinonim so'zlardan foydalanish san'ati diqqatga sazovardir. Buni «yaxshi`` so'zining sinonimik qatoriga yana bir marta oltita so'z birlashgan: «talū, kaz, edshu, tuzun, silig, neku, yeg``. Bular o'zlaridagi ma'no nozikliklari tishqari vazniy ehtiyoj tufayli ham o'ziga xosliklarga ham ega. Bulardan talu, tuzun, silig, neku ko'proq rukn boshida kelsa, qolganlari rukn ichida yoki uning oxirida joylashadi.

«Qutadg‘u bilig”dagi sinonimlarning yana bir xususiyati, yuqorida aytganimizday she’r qofiyasi bilan aloqadordir.

Kimningdir eshitgu kerak so‘z chini,

So‘zug kimka ayg‘u, menga ay ko‘ni.

Ya’ni: So‘zning chinini kimdan eshitish kerak,

So‘zni kimga aytish kerak, menga to‘g‘risini ayt.

Bu misolimizda «chini``, «ko‘ni`` sinonimlari ishlatilgan. Asarni ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, ``Qutadg‘u bilig”da bu so‘zning yana «butun`` sinonimini ham bor. Keltirilgan baytdagi sinonimning qo‘llanishi mutaqorib baxridagi vazn talabi bilan izohlanadi. Chunki asar vazni mutaqoribi musammani mahfuz (unda maqsur va solim ko‘rinishlari ham bor). – O‘n bir bo‘g‘indan iborat bo‘lib, qofiyalardan tashqari so‘zlar to‘qqiz bo‘g‘inni tashkil qiladi. Demak, bu o‘rinda ikki bo‘g‘indan tashkil topgan «chini`` va «ko‘ni`` so‘zlarining qo‘llanishi maqsadga muvofiqdir, «butun`` esa o‘zining bosh shaklida qofiyaga, she’riy ohangdorlik talabiga, ya’ni «chini`` yoki «ko‘ni``ga javob Bera olmaydi, unga egalik qo‘shimchasi –i, qo‘shilganda esa vaznga «sig‘may qoladi``. Shuning uchun ham Yusuf yuqoridagi sinonimlarni tanlab to‘g‘rurakkabligi bilan aruz talablariga turkiy til zaminida turib javob beradi va uning vaznini barmoq vazni deyishga real asoslar yo‘q.

Demak, biz tadqiq etayotgan asar o‘z davri uchungina emas, balki bugungi davr adabiyotshunosligi talablari asosida tahlil qilganimizda ham g‘oyat pishiq va mukammal tuzilganini ko‘rsatadi.

XULOSA

Asar janri haqida ``Qutadg‘u bilig’’ning yetuk tadqiqotchilaridan Q.Karimov yozadi: ``Qutadg‘u bilig’’ dostoni Sharq adabiyotidagi epik asarlar uchun qabul qilingan masnaviy (qofiyalangan baytlar) shaklida yozilgan.

Asarda masnaviy bilan bir qatorda qasida janrida yozilgan boblar ham mavjud. Dostonning 71, 72 va 78 boblari (ular 44, 40, 37 baytdan iborat) g‘azal shaklida yozilgan, ya’ni dastlabki bayt bilan keyingi barcha baytlarning juft misralari qofiyalanib kelgan.

Dostonning har bir bobi nihoyasidagi to‘rtliklarni (ular ikki yuz atrofida) garchi ruboiy uchun qabul qilingan hazajda emas, mutaqorib she’riy vaznida yozilgan bo‘lishiga qaramay, mazmuniga ko‘ra ham, shakliga ko‘ra ham ruboiy janriga nisbat berish mumkin``.

Xullas, asarning janr jihatdan murakkabligi deyarli barcha tadqiqotlarda e’tirof etilgan.``Qutadg‘u bilig’’ tarkibidagi ayrim o‘rinlar uni boshqa janrlarga ham yaqinlashtiradi.

Yusuf Xos Hojibning o‘zi bu haqda asarning nasriy muqaddimasida «Adlqa Kuntug‘di elig at berib padshah o‘rniga tutmish, davlatqa Aytuldi at berib, vazir o‘rniga tutmish, aqlqa O‘gdulmish at berib, vazirning o‘g‘li yerinda tutmish turur, qanaatqa O‘zg‘urmish at berib qarindashi teb aymish turur. Taqi anlar ara m u n a z a r a savali-javabi kecharteg so‘zlamish turur``, deydi. She’riy muqaddimada esa asarning «turkcha qo‘shiqlar``dan iborat ekanligiga ishora bor:

Bu turkcha qo‘shuqlar tuzattim senga

O‘qurda unutm, dua qil menga.

Shuningdek, asar matni orasida «she’r`` atamasining juda ko‘p qo‘llanganini ham ko‘rish mumkin.

Demak, “Qutadg‘u bilig’’ning janriga oid kuzatish va qaydlarda u turlicha nomlanadi (qo‘shiq, munozara, she’r, doston...) “Qutadg‘u bilig’’ bilan bog‘liq, bu hodisaning sababi, bizningcha, uning janr jihatidan, aniqrog‘i janrlar tizimiga ko‘ra, sinkretik xarakterda ekanligida.

Bu hodisa tipologik jihatdan qadimgi rus adabiyotidagi janrlar taqdiriga o'xshab ketadi. Chunki ularda ham ko'pincha bir asarning o'zi turli janrlarga aloqadorligini ko'rish mumkin. Buning sababini akad. D.S.Lixachev shunday ko'rsatgan:

«Qadim rus adabiyotidagi ayrim janrlarning qorishtirilishi va noaniq ajratilishining bosh sababi shundan iboratki, janrni ajratish asosi uchun, boshqa belgilar bilan bir qatorda ifodaning adabiy xususiyatlari emas, balki asar bag'ishlangan predmet, mavzuning o'zigina xizmat qilar edi. haqiqatda esa qadimgi Rus adabiyotshunosligida janrni aniqlash ifodalash predmetini aniqlash bilan qo'shib ketar edi: «видение», «жизнь», «хождение», «деяния»³¹.

«Qutadg'u bilig» janriga doir fikrlarga ham shu jihatdan yondashishi kerak.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari turkiy xalqlar adabiyoti tarixida muhim o'rin egallab, jahon adabiyotidagi badiiy kashfiyotlarning eng porloq namunalaridan hisoblanadi. «Qutadg'u bilig» ning yaratilishi turkiy xalqlar adabiyoti tarixida ilk klassik poeziyaning kamolot davrini tashkil etadi. Mazkur asarning paydo bo'lishi tasodifiy bir hol bo'lmay, qadimiy tarixga ega bo'lgan turkiy xalqlar poeziyasi taraqqiyotining qonuniy hodisasi sifatida o'zida turkiy poeziyaning barcha muvaffaqiyatlarini aks ettiradi.

«Qutadg'u bilig» turkiy tildagi poetik janrlarning shakllanishi va evolyutsiyasini kuzatish uchun muhim manbadir. Turkiy tildagi she'riy shakllar, ularning o'zaro munosabati, umuman, turkiy tildagi adabiyotning XI asrdagi holati va uning oldingi davrlar, shuningdek, qo'shni xalqlar adabiyoti bilan aloqasi XI asr adabiy etiketiga munosabati kabi masalalarni «Qutadg'u bilig» orqali yoritmoq mumkin. Bu masalalarning birortasi ham chuqur tahlil etilgan emas.

Turkiy tilli adabiyotdagi she'riy shakllarlarning poetikasi va rivojlanish qonuniyatlari ham yetarli darajada o'rganilmagan.

XI asr turkiy tilli adabiyotda janrlar differentsiatsiyasi endigina boshlanayotgan edi. Bu jarayonning butun ko'lami «Qutadg'u bilig»da o'z ifodasini topgan. Bu

³¹ Lixachev D.S. Поэтика древнерусской литературы... С.41.

yerda turkiy tilli xalqlar yozma adabiyotining an'analari bilan folklor an'alarining, bu yo'nalishdagi adabiyotlarda mavjud janrlarning o'zaro bir-birlariga ta'sirini ham nazarda tutish kerak. Buning ustiga fors-tojik va arab adabiyotining ta'siri ham nazarda tutiladigan bo'lsa, turkiy tildagi adabiyotning shu davrdagi janrlari, xususan, «Qutadg'u bilig»da mavjud janrlarning sinkretik holatini tasavvur etish, bizningcha, bir muncha yengillashadi. Asardagi bu holatni S.G.Klyashtorniy juda to'g'ri xarakterlab bergan: *«Qutadg'u bilig»da bir qancha adabiy an'alar chatishib ketgan. Doston bandlarida goh qadimgi turkiy marsiyalarning hayajonli sadolari yangraydi, goh forsiy «pandnoma»larga xos didaktika eshitiladi, goh sahro qo'shiqlarining ask-sadosi quloqqa chalinadi, goh sufiylarning mistik simbolikasi seziladi»³².*

«Qutadg'u bilig»da didaktik ruh nihoyatda kuchlidir. Bu shoirning niyati va o'z asari oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadi.³³

Asardagi bu xususiyatga ayrim tadqiqotchilar kamchilik sifatida qarashadi. Bu faqat «Qutadg'u bilig»dagina emas, balki didaktik ruhdagi ko'pgina asarlarga qarashda ko'rinadigan umumiy xususiyatdir. Bunday qarashlarga V.B.Kudelin Yunus Emro ijodi misolida ko'rsatib bergan.³⁴

Umuman olganda, bu asar ham badiiy jihatdan, ham mavzu va g'oya jihatdan juda mukammal asardir.

³² Klyashtorniy S.G. Эпоха «Кутадгу билиг» // Советская тюркология. 1970. № 4. С. 82.

³³ Valitova A.S. Юсуф Баласагунский и его «Кутадгу билиг» ... С.59-60.

³⁴ Kudelin V.B. Поэзия Юнуса Эмре. М.: Наука. 1980. С. 88-89.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyoi kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997.
2. Abdullayev K. Qasoidi Hofiz.- //Chashnnomai Hofiz.–Dushanbe, Donish, 1971.
3. Abduraxmanov G. A. Исследование по старотюркскому синтаксису XI века. - М.: Наука, 1967.
4. Valitova A.A. Этноними в тюркоязычном памятнике XI «Кутадгу билигъ.- М.: Наука, 1964.
5. Valixojayev B. Алишер Навоий ва унинг издошлари талқинида туюқ. - Адабий мепос, 3-том. - Тошкент: Фан, 1973.
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga yullovchi bilim), transkripsiya va hozirgi o‘zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi K. Karimov. - Toshkent: Fan, 1971.
7. Valitova A.A. Этноними в тюркоязычном памятнике XI в. "Кутадгу билиг".- М.: Наука, 1964.
8. Adabiyot nazariyasi. II tom. Toshkent, “Fan”, 1979.
9. Bertels Y.E. Навои и Низами, Сб, “Алишер Навои”, М., 1946.
10. Bertels Y.E. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965.
11. Sodiqov Q. “Qutadg‘u bilig”ning til xususiyatlari. – // O‘lmas obidalar, Toshkent, Fan, 1989.
12. Radlov V.V. Кутадгу билиг. Факсимиле уйгурской рукописи императорской и королевской библиотеки в Вене. СПб., 1890.
13. Karimov K. “Kutadg‘u bilig”ning tuzilishi va vazni. 2 - kitob. - Toshkent: UzFA nashriyoti, 1961.
14. Ishoqov Y. Klassik adabiyot poetikasidan ma’lumotlar. Muqaddima. Ma’naviy san’atlar. Iyhom. - O‘zbek tili va adabiyoti, 1970. 1-son.
15. Ishoqov Y. Radd ul kofiya.- O‘zbek tili va adabiyoti, 1973, 1-son.
16. Ishoqov Y. Tazod. - O‘zbek tili va adabiyoti, 1970, 5-son.

17. Ishoqov Y. Tanosib. - O'zbek tili va adabiyoti, 1970, 6-son.
18. Ishoqov Y. Tashbeh. - O'zbek tili va adabiyoti, 1970, 4-son.
19. Ishoqov Y. Qaytarish. -O'zbek tili va adabiyoti, 1972, 2-son.
20. Ishoqov Y. Qofiya va she'riy san'atlar. - O'zbek tili va adabiyoti, 1980, 1-son.
21. Karimov K. Ilk badiiy doston. - Toshkent: Fan, 1976.
22. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 1976.
23. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
24. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
25. tdpu-INTRANET. Ped
26. www.ziynet.uz
27. www.nutq.intal.uz

